

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

\_\_\_\_\_Fakultet dekani

f.f.d., prof. B.Adushukurov

“ \_\_\_\_ ” - \_\_\_\_\_ 2018-y.

5141200 – O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish bakalavr ta’lim yo‘nalishi IV bosqich  
401-guruh talabasi Dustqorayeva Maftunaning **“Mustahkamlovchi mashqlarni  
bajartirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari”**  
mavzusida yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ T. Yusupova,  
O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida  
dotsenti, p.f.n.

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ M.Hakimova,  
O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida  
dotsenti, f.f.n.

\_\_\_\_\_ E.Qurbonova,  
TFI akademik litseyi  
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi  
kafedrasida mudiri

\_\_\_\_\_ f.f.n. I.Azimova

\_\_\_\_\_ 2018-yil

**TOSHKENT – 2018**

## Mundarija

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>I Bob. Ona tili ta'limida qo'llaniladigan mustahkamlovchi mashqlar tushunchasining ilmiy-metodik asoslari</b> .....	<b>9</b>
1.1. Mustahkamlovchi mashqlar tushunchasining ilmiy-metodik talqini .....	9
1.2. Darsliklarda berilgan mustahkamlovchi mashqlarning mazmuni va ularni bajartirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari . . .	17
1.3. Ona tili ta'limida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashning bugungi holati .....	22
Bob yuzasidan xulosalar .....	27
<b>II Bob. Mustahkamlovchi mashqlarni innovatsion texnologiyalar yordamida bajartirish metodikasi</b> .....	<b>30</b>
2.1. Mustahkamlovchi mashqlarni innovatsion texnologiyalar yordamida bajartirish mazmuni .....	30
2.2. Innovatsion texnologiyalar yordamida bajariladigan mustahkamlovchi mashqlarlarning turlari .....	44
Bob yuzasidan xulosalar .....	51
<b>III Bob. Tadqiqotning amaliyotga tatbiqi</b> .....	<b>53</b>
3.1. Mashqlarni bajarishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar .....	53
3.2. Mashqlarni innovatsion texnologiyalar yordamida bajarilishi yuzasidan olib borilgan ishlarning natijalari .....	60
Bob yuzasidan xulosalar .....	61
<b>Umumiy xulosalar va metodik tavsiyalar</b> .....	<b>62</b>
<b>Tayanch so'zlarning o'zbekcha-inglizcha lug'ati</b> .....	<b>64</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	<b>66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy sohalardagi keng ko‘lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan mustaqil hayotiy positsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”<sup>1</sup>, - degan fikrlari har birimizdan katta mas’uliyatni talab qiladi. Chunonchi, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham o‘zining “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oily saodatdir” asarida yosh avlod tarbiyasidagi ijobiy tomonga bo‘lgan o‘zgarishlarga alohida urg‘u berib, shunday deb yozadi: “Eng muhimi, zamonaviy bilim va tafakkurga, sog‘lom dunyoqarashga ega, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga tayyor bo‘lgan, ko‘zi yonib turadigan navqiron avlodimiz katta ishonch bilan hayotga dadil kirib keloyatgani barchamizni quvontiradi”<sup>2</sup>.

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo‘lmish ona tili ta’limi maktabda yetakchi o‘quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. Ta’lim bosqichlarida til sathlarining o‘qitilishida maktab “Ona tili” va akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarining o‘rni va ahamiyati katta. Shu ma’noda o‘zbek tilining sathlari sifatida darsliklarda berilgan o‘quv materiallarini, jumladan, mashq va topshiriqlarni chuqur o‘rganish, ularning mavzuga doir materiallarni o‘rganishdagi vazifasi va ahamiyatini tadqiq etish,

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон 2016. –В. 56

<sup>2</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oily saodatdir. – Toshkent: “Ozbekiston 2015. – B.281

ularni bajarilish usullarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Ayni shu talab bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Til sathlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan mashqlar mazmuni va mohiyatini o‘rganish va tadqiq etish, ushbu jarayonga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish masalasiga doir bir qator ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.G‘ulomov va B.Qobilovanning “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” kitobini<sup>3</sup>, Sh.Yusupovanning “Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)” mavzusidagi nomzodlik<sup>4</sup>, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadovalarning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasini,<sup>5</sup> M.Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini<sup>6</sup>, M.Omilxonova, Y.Abdullayev, R.Abdulahatova, R.Inog‘omova, A.Orifjonovlarning “5- va 6-sinfda ona tili darslari” metodik qo‘llanmasini,<sup>7</sup> N.Yo‘ldoshevaning “Umumorta ta’lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,<sup>8</sup> T.Ziyodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,<sup>9</sup> A.Bobomurodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish” mavzusidagi nomzodlik

---

<sup>3</sup> Gulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 160 b.

<sup>4</sup> Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Toshkent, 1998. – 26 б.

<sup>5</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси (ўқув қўлланма). – Toshkent: Янги аср авлоди, 2006. – 174 б.

<sup>6</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Toshkent, 2000. – 128 б.

<sup>7</sup> Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулахатова Р., Иноғомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили дarsлари (методик қўлланма). – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 262 б.

<sup>8</sup> Йўлдошева Н. Умуморта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Toshkent, 2002. – 23 б.

<sup>9</sup> Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Toshkent, 1995. – 141 б.

dissertatsiyasini<sup>10</sup>, O.Oxunjonovaning “Ta’lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o’qitish metodikasi” nomzodlik dissertatsiyasini<sup>11</sup>, N.Alavutdinovaning “Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko’nikmasini shakllantirish metodikasi” nomzodlik dissertatsiyasini<sup>12</sup>, I.P.Po’latov va S.A.Odilovlarning ham muallifligida tayyorlangan “Ona tili ta’limida didaktik o’yinlar texnologiyasi” o’quv-uslubiy qo’llanmasini<sup>13</sup> asos sifatida keltirish mumkin. Ayniqsa, M.Saidovning “O’zbek maktablari-ning 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o’quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi<sup>14</sup> da ona tilining “Muqaddima”, “Leksika”, “Fonetika” bo’limlarini o’qitish masalasiga to’xtalib o’tadi. Unda, asosan, mashq va topshiriqlarni til sathlarini o’qitish jarayonida tafakkurni rivojlantirishga yo’naltirish ko’zda tutilgan. Shuningdek, I.P.Po’latov va S.A.Odilovlarning ham muallifligida tayyorlangan “Ona tili ta’limida didaktik o’yinlar texnologiyasi” o’quv-uslubiy qo’llanmasi<sup>15</sup> da ham juda ko’plab mashqlar va ularni bajartirish yo’llari tavsiya qilingan.

**BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish fakulteti “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasining “2017–2018-yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqotning maqsadi umumta’lim maktablari-ning “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklaridagi til sathlarini o‘qitish jarayonidagi mashq va topshiriqlarning takomillashtirilgan tizimini ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>10</sup> Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

<sup>11</sup> Охунжонова О. Таълим bosqichlarida sinonimlar mavzusini ўқитиш методикаси: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 2009. – 144 б.

<sup>12</sup> Алаутдинова Н. Она тили дарсларида иждодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 2008. – 148 б.

<sup>13</sup> Po’latov I.P., Odilov S.A. Ona tili ta’limida didaktik o’yinlar texnologiyasi. O’quv-metodik qo’llanma// Qo’qon, 2014. 32 bet.

<sup>14</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

<sup>15</sup> Po’latov I.P., Odilov S.A. Ona tili ta’limida didaktik o’yinlar texnologiyasi. O’quv-metodik qo’llanma// Qo’qon, 2014. 32 bet.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqotning bosh vazifasi sifatida ta'lim bosqichlari ona tili ta'limi jarayonida til sathlarini o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish masalasi belgilandi. Shunga ko'ra tadqiqot ishini yoritish davomida:

- Ta'lim bosqichlarida til bo'limlari mavzularini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan mashqlarning o'rganilishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, mavzuning yoritilganlik darajasini va mavjud muammolarni aniqlash;

- Amaldagi "Ona tili" va "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarini har bir til sathi doirasidagi mustahkamlovchi mashqlar nuqtayi nazaridan o'rganib chiqish, ularni bajartirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish;

- Mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jarayonida samara beruvchi usul va vositalarni aniqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan metodikasini ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'yekti.** Til sathlari yuzasidan berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti.** Til sathlari yuzasidan berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayoni, shu jarayonga xos ta'lim vositalari, usullari va mazmunining talqini.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Ishda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari va asarlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, o'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi, "Ona tili" DTSi, taniqli metodist olimlarning ona tili ta'limining mazmunini yangilash, uni o'qitishning samaradorligini oshirish to'g'risidagi ilmiy-metodik asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Ishda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Bitiruv malakaviy ishida ona tilini o‘qitish metodikasi sohasidagi mavjud qarashlar asosida til bo‘limlarini o‘rganishda mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish mazmuni tadqiq qilindi. Bunda:

- Til bo‘limlarini o‘rganilish masalasiga oid qilingan tadqiqot ishlari va metodik qo‘llanmalarga munosabat bildirildi.
- Til bo‘limlarini o‘rganish jarayonida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashning hozirgi holati o‘rganildi.
- Mavjud dastur va darsliklar shu nuqtai nazar bilan tahlil qilindi.
- Til bo‘limlarini o‘rganish jarayonida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash bilan bog‘liq ishlarga qo‘yiladigan asosiy talablar belgilandi.
- Til bo‘limlarini o‘rganish jarayonida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish metodikasi yaratildi.
- Til bo‘limlarini o‘rganish jarayonida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash bilan bog‘liq tajribalar o‘tkazildi va tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati ta‘lim bosqichlari ona tili ta‘imida til bo‘limlarini o‘rganish jarayonida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash holatini aniqlashda hamda uni o‘qitishning nisbatan qulayroq va samaraliroq shakl va usullarini tavsiya etishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari til bo‘limlarini o‘rganish jarayonida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash masalalariga oydinlik kiritadi, uni o‘rganishda va ta‘lim bosqichlarida qo‘llashda manba bo‘la oladi va ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliy material bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakultetining “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha TFI akademik litseyida ochiq darslar o‘tkazildi (ochiq darslar ishlanmalari ilova qilinadi). Shuningdek, mavzuga oid bitta maqola ToshDO‘TAU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida tashabbusi

bilan tashkil qilingan “O‘zbekiston: til va madaniyat” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materillari to‘plamida nashr etildi.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, BMIda qo‘llangan terminlarning o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 70 sahifani tashkil qiladi.



## I BOB

### ONA TILI TA'LIMIDA QO'LLANILADIGAN MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLAR TUSHUNCHASINING ILMIIY-METODIK TALQINI

#### 1.1. Mustahkamlovchi mashqlar tushunchasining ilmiy-metodik talqini

Ta'lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ta'lim mazmuni deganda, birinchi navbatda o'quv materillari tushuniladi. O'quv materiallarining asosini tashkil qiluvchi asosiy ish turi – bu o'quv topshiriqlari va mashqlar hisoblanadi.

Biz bilamizki, tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida doimo “Nimani o'qitish kerak?” degan savolga hamisha javob izlashgan va uni asoslashga harakat qilishgan. Ayni “Nimani o'qitish kerak?” degan savol mazmuni va talabi ona tili darslari o'quvchilar bajaradigan o'quv topshiriqlari va mashqlarga ham tegishlidir.

Keling, dastavval, o'quv topshirig'i va mashq tushunchalariga aniqlik kiritaylik. O'zbek tilining izohli lug'ati<sup>16</sup>da “*mashq*” atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: **MASHQ** I [a. – husnixat, rasm chizish uchun namunalari]. Biror faoliyatni puxtaroq o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. *Harbiy mashq. Mashq qilmoq. – Siddiqjon ko'kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro'parasida kitob o'qib o'tirar edi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kegan militsioner, – ko'pi mashq ko'rmagan, hali multiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo'lidan nima kelar edi. S.Ayniy, Qullar. Uzoq mashqlar bekor ketmagan edi. Xonning qo'shini go'yo bir tan, bir jon bo'lib harakat qilar edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. 2. Ma'lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan ish, harakat. Imloga oid mashqlar. Jismoniy mashqlar. – Bolalar bir-birlarining qo'llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan.*

---

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.П. Е-М/Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқалар: ЎзРФА Тил ва адабиёт институтию – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Далат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.

**Mashq qilmoq.** Mashq tarzidagi ish, harakat va shu kabilarni bajarmoq. *Tirishib mashq qilishim orqasida hamsaboq o'rtoqlarim orasida insho yozishda peshqadam bo'ldim.* N.Safarov, Olovli izlar. *G'anisher bugun uyqudan tiniqib turdi, oldinga va orqaga engashib mashq qildi.* "O'zbekiston qo'riqlari". Mashqni olmoq. Yaxshi malaka hosil qilmoq, havosini olmoq, obdon egallamoq. *U 1930 yillar qishloq sovetiga kotib bo'lganidan beri majlislarda so'zlash mashqini olgan edi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar.

Mashq II [a. ]. 1. Cholg'u kuyi va uning ijrosi. *Sozandalar uzoq mashqdan keyin tanaffus qildilar va cholg'ularini qo'yib, choy icha boshladilar.* P.Tursun, O'qituvchi. *Yo'ldosh otaga chalib bergan mashqlaringiz hali ham qulog'imdand ketmaydi.* S.Ahmad, Xazina. 2. Ko'chma. *Kishining kayfiyati, shaxti. Dadavoyga qizining mashqi past, ruhi ezilganroq tuyuldi.* H.G'ulom, Toshkentliklar.

Yuqorida berilgan ta'riflardan bizning ona tili o'qitish metodikasi sohasi uchun ma'quli MASHQ I dagi ikkinchi ta'rif, ya'ni "*ma'lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan ish, harakat. Imloga oid mashqlar. Jismoniy mashqlar.*" deb berilgan ta'rif to'g'ri keladi.

Pedagogika ensklopediyasida mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashganini va ta'lim sohasiga moslashtirilganligini ko'rish mumkin: Mashq (arabcha so'z bo'lib, husnixat, rasm chizish uchun namunalarigan ma'noni bildiradi) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p takrorlash demakdir. Masalan, *o'qish, yozish.* Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi<sup>17</sup>.

**TOPSHIRIQ** Kimsaning zimmasiga yuklatilgan ish, vazifa. Hukumat topshirig'i. Topshiriq bermoq. Topshiriq olmoq. – Endi deputat bo'lib, *sizlarning topshiriqlaringizni ham jonimni ayamay bajaraman.* Oydin, sadag'ang bo'lay, komandir. *Tergovchi ham xit bo'ldi. Axir, u bu yerga o'ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan, oqni oqqa, qorani qoraga ajratish uchun kelgan.*

---

<sup>17</sup> Педагогика энциклопедияси. – Тошкент. 2-жилд. Ж-М, 2012ю 223-бет.

S.Anorboyev, Oqsoy. *Bu mening emas, dekaning topshirig'i. Shikoyatingiz bo'lsa, o'ziga ayting.* O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

Til sathlarini o'qitishga doir ishlarni o'rganish natijasi, asosan, M.Asqarova, A.G'ulomov, Y.Abdullaev, M.Omilxonova, O.Roziqov, A.Sayfullaev, O.Yoqubjonova, R.Abdulahatova, R.Inog'omova, M.Abduraimova, R.Qayumova, T.G'aniyev, Sh.Yo'ldosheva, M.Sobirova, Sh.Yusupova, T. Yusupova, T.Ziyodova, A.Bobomurodova, M.Saidov, O.Oxunjonova, N.Yo'ldosheva kabi metodistlarning yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qo'llanmalari, ilmiy maqolalarida ko'zga tashlanadi. Mazkur ishlardagi tavsiyalardan bugungi kunda ham maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili darslarini tashkil etishda zaruriy dasturulamal sifatida unumli qo'llanilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishda topshiriq va mashqlar tizimini ishlab shiqish va undan samarali foydalanish muammolari bir qator metodist olimlar T.G'aniyev<sup>18</sup>, M.Mahmudov<sup>19</sup>, E.M.Sorokina<sup>20</sup>, A.G'ulomov<sup>21</sup>, R.Safarova<sup>22</sup>, G.Urumboyeva<sup>23</sup>, M.Saidov<sup>24</sup>, V.A.Saakyan<sup>25</sup>, Sh.Yusupova<sup>26</sup>, T.Ziyodova<sup>27</sup>, M.Sobirova<sup>28</sup>, N.Qosimova<sup>29</sup>, T.A.Yusupova<sup>30</sup>,

---

<sup>18</sup>. Ганиев Т.Т. Активизация познавательной деятельности учащихся в процессе выполнения упражнений по родному (узбекскому) языку. Авт-т дисс... канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 23 стр.

<sup>19</sup>. Махмудов М.Ҳ. Таълимни дидактик лойихалашнинг назарий асослари. Пед.фан.докт... дисс. автореферати. – Тошкент. 2004. 45 б.

<sup>20</sup>. Сорокина Е.М. Обучение построению сложного синтаксического целого на уроках русского языка в узбекской школе. Автореферат дисс...канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 20 стр.

<sup>21</sup>. Фуломов А.,Қобилова Б.Нутқ ўстириш машғулотлари. –Т.:“Ўқитувчи”, 1995. –158 б.

<sup>22</sup>. Сафарова Р.Г. Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения. Автореферат дисс... докт.пед.наук. – Ташкент. 1998. – 34 стр.

<sup>23</sup>. Урумбаева Г.Н. Лингводидактические основы обучения учащихся 7–9-классов сложному синтаксическому целому как базовой структуре русской монологической речи (на материале школ с каракалпакском языком обучения). Автореферат канд.дисс... пед.наук. – Ташкент. 2001. 19 стр.

<sup>24</sup>. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед.фан. номзоди ...дисс.- Тошкент, 2000. - 128 б.

<sup>25</sup>. Саакян В.А. Роль упражнений в усвоении, закреплении знаний по синтаксису и в развитии речи учащихся VII-IX классов армянской школы: Автореф. дис...канд. пед. наук. – Ереван, 1983. -26 с.

<sup>26</sup>. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед.фан.докт...дисс. автореферати. –Тошкент. 2005. 45-бет.

<sup>27</sup>. Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. – Тошкент, 2000. – 163 б. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. - Т.,

M.Rixsiyeva<sup>31</sup>, Bobomurodova<sup>32</sup> va A.Ergasheva<sup>33</sup>lar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zlarining ilmiy ishlarida rekonstruktiv, reproduktiv hamda ijodiy mashq turlari haqida batafsil ma’lumot berishgan, tasnif qilishgan.

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta’limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish masalasi, birinchi navbatda, o‘quvchiga bajartiladigan mashq va topshiriqlar mazmuni bilan belgilansa, ikkinchidan esa, shu jarayonni qanday tashkil qilish bilan ham bog‘liq. Ta’lim samaradorligini oshirish, til sathlarini o‘qitishda o‘quvchilarning mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonlarini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish masalalarini to‘liq hal etishda mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish yoki darsliklardagi mashqlar ustida ishlashni tashkil etishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish lozim deb o‘ylaymiz.

Ana shu masalalarni hal etishga qaratilgan o‘zbek tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasi faniga nisbatan kamroq o‘rganilganligi sezildi. Ular tomonidan yaratilgan dissertatsiyalarda, monografiyalarda, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va tavsiyalarda, davriy nashrlarda chop etilgan maqola va tezislarda bu masalaga juda kam e’tibor qilingan.

Aynan mashqlar ustida ishlash masalasini qamrab olmagan bo‘lsa-da, shu kabi mazmundagi ishlarga A.G‘ulomov va B.Qobilovanning “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari:

---

1995. - 141 б. Зиёдова Т. Тилсим топишмоқлари – нутқий фаолиятни шакллантириш омили: Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: РТМ, 1999. – 73 б.

<sup>28</sup>.Собирова М.Ю. Ўзбек мактаблари юқори синф ўқувчиларига содда гап синтаксисини мунозара усулида ўргатиш: Пед. фан. номз... дис. автореф. - Тошкент, 1994. – 23 б.

<sup>29</sup>. Фуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари. – Т.: “Ўқитувчи”, 1995. – 158 б.

<sup>30</sup>. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.номзоди ... дисс. - Тошкент, 2005. - 157 б. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш. – Тошкент, “Fan va texnologiyalar”, 2006. – 87 б. Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синфлар мисолида). Монография. – Тошкент. “Fan va texnologiyalar”, 2009. –176 б.

<sup>31</sup>. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни матн тузишга ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз. ... дисс.автореферати. – Тошкент, 1999, – 20 б.

<sup>32</sup>.Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

<sup>33</sup>. Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси. – Т.: “Fan va texnologiyalar”, 2010. – 69 б.

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” kitobini<sup>34</sup>, Sh.Yusupovaning “Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)” mavzusidagi nomzodlik<sup>35</sup> va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”<sup>36</sup> mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadovalarning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasini,<sup>37</sup> M.Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini<sup>38</sup>, M.Omilxonova, Y.Abdullayev, R.Abdulhatova, R.Inog‘omova, A.Orifjonovlarning “5- va 6-sinfda ona tili darslari” metodik qo‘llanmasini,<sup>39</sup> N.Yo‘ldoshevaning “Umumiy ta’lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,<sup>40</sup> T.Ziyodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,<sup>41</sup> A.Bobomurodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topish-moqlardan foydalanish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini<sup>42</sup>, O.Oxunjonovanning “Ta’lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o‘qitish metodikasi” nomzodlik dissertatsiyasini<sup>43</sup>, N.Alavutdinovanning “Ona tili darslarida ijodiy

---

<sup>34</sup> Гуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.

<sup>35</sup> Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноан’анавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

<sup>36</sup> Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дarsларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б.

<sup>37</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 174 б.

<sup>38</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

<sup>39</sup> Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулахатова Р., Иноғомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили darsлари (методик қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 262 б.

<sup>40</sup> Йўлдошева Н. Умумий таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 23 б.

<sup>41</sup> Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.

<sup>42</sup> Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

<sup>43</sup> Охунжонова О. Таълим bosқичларида синонимлар mavzusini ўқитиш методикаси: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 2009. – 144 б.

fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi” nomzodlik dissertatsiyasini<sup>44</sup>, X.Qurbonovanning “Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari”<sup>45</sup> nomzodlik dissertatsiyasini asos sifatida keltirish mumkin.

Bu ishlarning ichida M.Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik<sup>46</sup> va A.Bobomurodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish” mavzusidagi nomzodlik<sup>47</sup> dissertatsiyalarini alohida ta’kidlash mumkin. Chunki bu ishlarda aynan o‘quv topshiriqlari, ularning turlari va tasnifi, mazmun-mohiyati, qo‘llanilish o‘rinlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Jumladan, M.Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi” mavzusidagi nomzodlik<sup>48</sup> dissertatsiyasi aynan o‘quv topshiriqlar va mashqlar masalasiga, ularning mazmunidan kelib chiqib qilingan tasnifiga oydinlik kiritadi.

Chunonchi, M.Saidov bunday yozadi: “... ona tili mashg‘ulotlarida, ko‘p hollarda, o‘quvchi o‘rganilgan bilimlarni xotirada tiklash, egallanganlarni eslashdan nariga o‘tmaydi. Qisman ijodiy va ijodiy topshiriqlarni yetarli darajada ishga tushira olmaslik natijasida ular ijodiy faoliyatga tayyor bo‘la olmayotirlar. Bu ona tili mashg‘ulotlarini tamoman yangi mazmun va yo‘nalishda tashkil etishni, darsda o‘qituvchining mutloq hukmronligidan qutulib, keng ijodiy maydon muhitini yaratishni taqozo etadi”<sup>49</sup>. U o‘z fikrini davom ettirib, bunday deydi: “O‘quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so‘z qashshoqligi, fikrni mantiqan

---

<sup>44</sup> Алаутдинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 2008. – 148 б.

<sup>45</sup> Х.Қурбонова. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 2005. – 150 б.

<sup>46</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

<sup>47</sup> Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

<sup>48</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

<sup>49</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

to'g'ri bayon qila olmaslik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo'lgan fikrlarni mantiqiy bo'laklarga to'g'ri ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetga chiqish singari holler tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligini qayta xotirlash xarakteridagi o'quv topshiriqlaridan keng foydalanish natijasida yuzaga keladi".

Biz ham o'z ishimizda "mashq" va "topshiriq" atamalari, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqida to'xtalishni joiz deb bildik. Metodist olim M.Saidov ta'lim mazmuni sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni farqlaydi. Jumladan, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlarida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishini ta'kidlaydi. Dastlabki ikki atama borasida ona tili o'qitish metodikasida ikki xil qarash mavjud. G.Azizov, O.Botirov kabi metodist olimlarimiz mashqni topshiriqning bir shakli deb hisoblasa, Y.G'ulomov, H.Rustamov va B.Mirzaahmedovlar uni o'qitish metodi sifatida talqin qiladilar.

Tajribali o'qituvchi, metodist N.Ahmedovaning "O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari"<sup>50</sup> nomli o'quv qo'llanmasida kichik guruhlar bilan ishlash texnologiyasi haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, undan darsliklardagi mashqlarni bajartirish jarayonida tatbiq etish mumkin. Muallif o'z kitobida kichik guruhlarda ishlash metodini quyidagi reja asosida tushuntiradi: 1. Kichik guruhlarda ishlash metodining mohiyati. 2. Kichik guruhlar ishlash metodi asosida dars tashkil etish. 3. Kichik guruhlar bilan ishlash texnologiyasi. 4. Ona tili ta'limida bu metodni qo'llash. Muallif guruhlardagi o'quvchilarning sonini "3 kishidan", "4 kishidan", "5 va 6 kishidan", "7 kishidan", "8 va 9 kishidan", "10 kishidan" iborat deb ajratadi va ularning xususiyatini ham yoritib beradi. Bunday sonli guruhlar ichida eng samarasiz guruh deb "10 kishilik" guruhni belgilaydi va shu xususiyatlarni "7 kishilik" hamda "8 va 9 kishilik" guruhlariga nisbatan ham bildiradi.

---

50. N.Axmedova. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2012, – 27-33-betlar.

M.Saidov professor A.G‘ulomovning “mashq ham o‘quv topshirig‘ining bir shakli, ham o‘qitishning muayyan bir shakli”, degan fikriga qo‘shiladi va topshiriq mashqning bir bo‘lagi, u, asosan, mashqning shartida o‘z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e‘tirof etadi. Ustozim bilan birgalikda biz topshiriq mashqni o‘z ichiga oladi, degan boshqacha yondashuvni ilgari surib, topshiriqlar o‘quvchini yo‘naltiradi, mashqda esa bunay xususiyat mavjud emas, mashqlar malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi, degan fikrni ilgari suramiz.

Ona tili darslarini qiziqarli tashkil etishning eng qulay yo‘llaridan biri – o‘yin darslaridir. Ona tili darslarida o‘yin turlaridan foydalanish masalasi metodist A.Bobomurodovanning dissertatsion ishida tahlil etilgan.<sup>51</sup> U o‘z ishida ona tilining har bir bo‘limini o‘rganishda qaysi tildagi va turdagi ta‘limiy (didaktik) o‘yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi va buning yo‘llarini ko‘rsatgan. O‘yin usulida darsni yoki darsning ma‘lum bir bosqichini tashkil etish, albatta, o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ularni hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga undaydigan ta‘lim usuli hisoblanadi. A.Bobomurodova ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan o‘yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra uch turga ajratar ekan, birinchi turiga qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlarni kiritadi. Faqat ushbu o‘yinlarning kamchilik tomoni borligini eslatadi: “Qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlar o‘quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo‘l-lashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o‘yin-topshiriqlarni bajarish o‘quvchiga katta murakkablik tug‘dirmaydi, oldin o‘rganilgan mavzular va muayyan bilimga ega bo‘lgan o‘quvchi bunday topshiriqlarni bemalol bajarishi mumkin”<sup>52</sup>. Albatta, topshiriqlarni bemalol bajarish uchun bilim, ko‘nikma va malakalar yaxshi egallangan bo‘lishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchi o‘zi unutgan narsalarini xotiraga tushirish haqida o‘ylashi, biror yo‘l bilan o‘qib olishi, sinfdoshlaridan eshitib bo‘lsa ham, bila borishi darkor.

---

<sup>51</sup>. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Т., 1996. – 8-бет.

<sup>52</sup>. Юқорида номи кўрсатилган адабиёт. – 8-бет.



Demak, mashqlar, o'quv topshiriqlari tushunchalari doimiy ravishda metodist-olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Chunki ona til darslarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Topshiriqlarni bajartirish va mashq qilish orqaligina o'quvchilarda ko'nikmalarni shakllantirish, va malakaga ega qilish mumkin. Busiz bironta til sathlariga oid nazariy bilimlar kundalik hayotda doimiy asqotadigan kompetensiyaga aylanmasligi mumkin. Bu esa kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili ta'limining maqsadini ta'minlashga xizmat qiladi.

## **1.2. Darsliklarda berilgan mustahkamlovchi mashqlarning mazmuni va ularni bajartirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari**

O'qituvchi umumta'lim maktablarining ona tili darslarida va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini rejalashtirish va tashkil etishda o'quv fanidan yaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, darslik, shu darslik asosida tayyorlangan "O'qituvchi kitobi" metodik ko'rsatmalariga tayanadi. Darslik standart va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqib tuziladi. "O'qituvchi kitobi" undan foydalanish yo'l-yo'riqlarini beradi. Shunday bo'lgach, biz dastavval umumta'lim maktablarining "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklari doirasida shu darsliklarning fanni o'qitishda undagi mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foyalanish uchun beradigan imkoniyatlari haqida fikr yuritimiz.

Darsliklar tahlilini o'zaro bir-biriga daxldor quyidagi masalalar yuzasidan amalga oshirishni lozim topdik:

- Umumta'lim maktablarning "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida yangi mavzuni o'rganishga doir o'quv topshiriqlari va mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;
- Innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkonini beruvchi fonetik hodisalar, leksika, ibora, morfologik shakllar, sintaktik qurilmalar, sintaktik

figuralarni mustahkamlashga oid mashqlar va ularning shartlarini o‘rganish va tahlil qilish;

➤ “O‘qituvchi kitobi”da mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir tavsiyalarning mavjudligi.

Quyidagi jadvalda umumta’lim maktablarining 5-sinf “Ona tili” darsligida berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi nazariy ma’lumotlar va amaliy mashqlar hamda topshiriqlarni ajratdik.

5-sinf “Ona tili” darsligini shu nuqtayi nazar bilan tahlil qildik va uni quyidagi jadvalga joylashtirdik:

<b>5-sinf “Ona tili” darsligi (Leksikologiya bo‘limi)</b>			
<b>№</b>	<b>Nazariy ma’lumotlar</b>	<b>Mashq va topshiriqlar</b>	<b>Imkoniyatlarning mavjudligi</b>
1.	158-dars. Leksikologiya haqida suhbat	475-, 476-, 477-mashqlar.	Kichik guruhlarda ishlash, integratsiyalashgan ta’lim metodlari va “Bingo” texnologiyasi
2.	159-dars. So‘zning atash ma’nosi	480- va 481-mashqlar.	Esse ijodiy ish turi
3.	160-dars. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar	483-, 484-, 485-mashqlar.	“Izohli lug‘at” bilan ishlash, “Bingo” texnologiyasi
4.	161-dars. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi	487-, 488-, 489-, 490-mashqlar.	“T – sxemasi” va “Bu bizniki” texnologiyalari
5.	162-163-dars. Yozma ish va uning tahlili		
6.	164-dars. Shakldosh so‘zlar.	492-, 493-, 494-, 495-mashqlar.	Integratsiyalashgan ta’lim metodi, “Bu bizniki” texnologiyasi
7.	165-dars. Uyadosh so‘zlar.	497-, 498-, 499-mashqlar.	“Qo‘sh daraxt” o‘yini, “T – sxemasi” va “Bu bizniki” texnologiyalari
8.	166-dars. Paronimlar.	501-, 502-, 503-mashqlar.	Talaffuz va imlo mashqlari, “Imlo lug‘ati ustida ishlash” usuli
9.	167-dars. Ma’nodosh so‘zlar.	505-, 506-, 507-, 508-mashqlar.	Klaster texnologiyasi, “Izohli lug‘at ustida ishlash” usuli
10.	168-dars. Ma’nodosh	510-, 511-, 512-,	Klaster texnologiyasi,

	soʻzlarning umumiy va xususiy maʼnolari	513-mashqlar.	“Izohli lugʻat ustida ishlash” usuli
11.	169-dars. Maʼnodosh soʻzlar qatorida bosh soʻz.	515-, 516-, 517-, 518-mashqlar.	“Zanjir” texnologiyasi, mashqlar bilan ishlash pragmatikasi
12.	170-dars. Zid maʼnoli soʻzlar.	520-, 521-, 522-mashqlar.	“T – sxemasi” va “Bu bizniki” texnologiyalari
13.	171-dars. Mustahkamlash.		
14.	172-dars. Nazorat darsi.		
15.	173-dars. Oʻzbek tili leksikasining boyish manbalari.	524-, 525-, 526-, 527-mashqlar.	“Sharhlash” usuli, integratsiyalashgan taʼlim metodi
16.	174-dars. Eskirgan soʻzlar.	528-, 529-, 530-mashqlar.	“Sharhlash” usuli, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Izohli lugʻat” bilan ishlash
17.	175-dars. Yangi soʻzlar.	532-, 533-, 534-mashqlar.	“Sharhlash” usuli, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Izohli lugʻat” bilan ishlash
18.	176-dars. Iboralar.	536-, 537-, 538-mashqlar.	“Sharhlash” usuli, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Izohli lugʻat” bilan ishlash
19.	177-dars. Iboralarning qoʻshma soʻz va soʻz birikmalaridan farqi.	540-, 541-, 542-mashqlar.	Qiyoslash usuli, “Venn diagrammasi” va “T – sxemasi” texnologiyalari
20.	178-dars. Tasviriy ifoda.	544-, 545-, 546-mashqlar.	Illyustrativ taʼlim va qiyoslash usullari
21.	179-dars. Mustahkamlash darsi.		
22.	180-181-darslar. Yozma ish va uning tahlili.		
23.	182-dars. Atamalar. Ilmiy atamalar.	549-, 550-, 551-mashqlar.	Illyustrativ taʼlim, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Izohli lugʻat” bilan ishlash
24.	183-dars. Kasbiy atamalar.	553-, 554-, 555-mashqlar.	“Oʻyin” texnologiyalari va illyustrativ taʼlim usuli
25.	184-dars. Shevaga xos soʻzlar.	557-, 558-mashqlar.	Suhbat va qiyoslash usullari
26.	185-dars. Olinma soʻzlar.	560-, 561-, 562-mashqlar.	“Sharhlash” usuli, integratsiyalashgan taʼlim

			metodi, “Izohli lug‘at” bilan ishlash, “Bingo” texnologiyasi
27.	186-dars. Lug‘at va lug‘atshunoslik.	564-, 565-, 566-mahqlar.	“Izohli lug‘at” bilan ishlash, “Bingo” va “O‘yin” texnologiyalari va illyustrativ ta‘lim usuli
28.	187-dars. Lug‘at turlari va ulardan foydalanish.	568-, 569-, 570-mashqlar.	“Izohli lug‘at” bilan ishlash, “Bingo” va “O‘yin” texnologiyalari
29.	188-dars. Mustahkamlash darsi.		
30.	189-dars. Nazorat darsi.		
31.	190-dars. Test.		

Umumta‘lim maktablari “Ona tili” darsliklarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu darsliklarda berilgan mustahkamlovchi mashqlarni bajartirishda nisbatan qiziqarliroq va mustaqil fikrlashga undovchi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati talaygina. Aynan innovatsion texnologiyalarni o‘rinli va samarali qo‘llash, albatta, ta‘lim sifatining yanada yaxshilanishiga hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi.

Biz shu tarzda akademik litsey darsliklarini ham o‘rganib chiqishni va shu nuqtayi nazar bilan tahlil qilishga ham harakat qildik.

Quyidagi jadvalda akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarining darsligida berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi nazariy ma‘lumotlar va amaliy mashqlar hamda topshiriqlarni ajratdik.

2-bosqich “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligini shu nuqtayi nazar bilan tahlil qildik va uni quyidagi jadvalga joylashtirdik:

<b>2-bosqich “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi (Leksikologiyaga oid darslar)</b>			
<b>№</b>	<b>Nazariy ma‘lumotlar</b>	<b>Mashq va topshiriqlar</b>	<b>Imkoniyatlarning mavjudligi</b>
1.	1-dars. O‘tilganlarni takrorlash.		
2.	2-dars. Adabiy til shakllari.		

3.	3-dars. Leksikologiya. Soʻz va leksema	47-, 48-, 49-, 50-, 51-, 52-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari
4.	4-dars. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Koʻchma maʼnolar va ularning turlari.	53-, 54-, 55-, 56-, 57-, 58-, 59-, 60-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari
5.	5-dars. Metafora va metonimiya hamda ularning uslubiy xususiyatlari.	62-, 63-, 64-, 65-, 66-, 67-, 68-, 69-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” texnologiyasi
6.	6-dars. Sinekdoxa va vazifadoshlik hamda ularning uslubiyati.	70-, 71-, 72-, 73-, 74-, 75-, 76-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” texnologiyasi
7.	7-dars. Atama va atamashunoslik. Atamashunoslik muammolari.	76-, 77-, 78-, 79-, 80-, 81-, 82-, 83-, 84-, 85-, 86-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” texnologiyasi
8.	8-dars. Oʻzbek tili leksikasining rivojlanishi. Oʻzbek tili leksikasining boyish manbalari.	87-, 88-, 89-, 90-, 91-, 92-, 93-, 94-, 95-, 96-, 97-, 98-, 99-, 100-, 101-, 102-, 103-, 104-, 105-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” va “Klaster” texnologiyalari
9.	9-dars. Qoʻllanilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan soʻzlar. Nomshunoslik.	106-, 107-, 108-, 109-, 110-, 111-, 112-, 113-, 114-, 115-, 116-, 117-, 118-, 119-, 120-, 121-, 122-, 123-, 124-, 125-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” va “Klaster” texnologiyalari
10.	10-dars. Omonim va sinonimlar hamda ularning uslubiy xususiyatlari	126, 127-, 128-, 129-, 130-, 131-, 132-, 133-, 134-, 135-, 136-, 137-, 138-, 139-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” va “Klaster” texnologiyalari
11.	11-dars. Antonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari. Takrorlash.	140-, 141-, 142-mashqlar.	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan taʼlim metodi, “Bu bizniki” va “Klaster” texnologiyalari
12.	12-dars. Barqaror birikmalar.	142-, 143-, 144-, 145-, 146-, 147-, 148-, 149-,	“Izohli lugʻat” bilan ishlash, sharhlash usullari,

		150-, 151-, 152-mashqlar.	integratsiyalashgan ta'lim metodi, "Bu bizniki" va "Klaster" texnologiyalari
13.	13-dars. Maqol va matallar.	153-, 154-, 155-, 156-, 157-, 158-, 159-, 160-, 161-, 162-, 163-mashqlar.	"Izohli lug'at" bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan ta'lim metodi, "Bu bizniki" va "Aqliy hujum" texnologiyalari
14.	14-dars. Hikmatli so'zlar (Aforizmlar).	164-, 165-, 166-, 167-, 168-, 169-mashqlar.	"Izohli lug'at" bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan ta'lim metodi, "Bu bizniki" va "Aqliy hujum" texnologiyalari
15.	15-dars. O'zbek leksikografiyasi (lig'atshunosligi). Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar va ulardan foydalanish.	170-, 171-, 172-, 173-, 174, 175-mashqlar.	"Izohli lug'at" va boshqa lug'atlar bilan ishlash, sharhlash usullari, integratsiyalashgan ta'lim metodi, "Bu bizniki" texnologiyasi
16.	16-dars. Filologik lug'atlar va ularning turlari.	176-, 177, 178-, 179-, 180-, 181-, 182-, 183-, 184-mashqlar.	"Sharhlash" usuli, integratsiyalashgan ta'lim metodi, barcha turdagi filologik lug'atlar bilan ishlash
17.	17-dars. Imlo lug'ati va etimologik lug'at hamda undan foydalanish.	185-, 186-, 187-, 188-, 189-, 190-, 191-mashqlar.	"Sharhlash" usuli, integratsiyalashgan ta'lim metodi, barcha turdagi filologik lug'atlar bilan ishlash

Akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining tahlili natijalari ham umumta'lim maktablari "Ona tili" darsliklari yuzasidan chiqargan xulosalarimizni tasdiqlaydi. Nisbatan unda integratsiyalashgan ta'lim metodi, sharhlash usuli, turli lug'atlar bilan ishlash kabilar ustunlik qiladi.

### **1.3. Ona tili ta'limida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashning bugungi holati**

Ishimizning bu bo'limida umumta'lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarining qanday tashkil etilayotgani haqidagi fikr-mulohazalarimizni bayon etishga harakat qildik. Dastavval, umumta'lim maktablari ona tili mashg'ulotlarida mustahkamlovchi mashqlar

ustida ishlash jarayoni o'rganildi. Mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashni tashkil etish jarayonlari dastlab dars kuzatish yo'li bilan o'rganildi. Bunda biz Toshkent shahri Chilonzor tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 114-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitilayotgan ona tili va Toshkent farmasevtika unstituti akademik litseyida o'qitilayotgan hozirgi o'zbek tili darslarini kuzatdik. Jami bo'lib maktablarda 10 ta, akademik litseylarda esa 25ta dars kuzatildi. Bunda ona tili o'qituvchilarining ish tajribasidagi yutuqlarni aniqlash, kamchiliklar va ularning sabablari haqida ma'lumotlar to'plash, dars jarayonida mashqlar ustida ishlashni tashkil qilishning qanday amalga oshirilayotganligini bilib olish, maktab va akademik litseyda mashqlar ustida ishlash jarayonida qaysi innovatsion texnologiyalarni qo'llayotganligini bilishni maqsad qilib oldik; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining qay ahvolda ekanligiga, shuningdek, mashqlar ustida ishlashga oid ko'nikma va malakalariga ham alohida e'tiborni qaratdik. Kuzatilgan darslar asosida quyidagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatish imkoniga ega bo'ldik:

– Ko'p hollarda ona tili o'qituvchilari darsda mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonini bir xil andazada tashkil etishmoqda, ya'ni mashq shartida berilgan topshiriqni bajartirish bilangina kifoyalanmoqdalar; faqat yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar doim o'qituvchining diqqat markazida, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa e'tibordan chetda qolib ketmoqdalar; shuningdek, mashqlar ustida ishlashda deyarli innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'zga tashlanmaydi; ba'zida o'yin texnologiyasidan foydalaniladi. Umuman olganda maktabda ham, akademik litseyda ham deyarli bir xil holat ko'zga tashlanadi.

– Aksariyat o'qituvchilarning esa darsda mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda turli innovatsion texnologiyalardan o'rinli va unumli foydalanayotganligining guvohi bo'ldik, ya'ni takrorlash darslarida boshdan-oyoq "Klaster", "..... ortiqcha", "Zinama-zina" kabi interfaol usullardan foydalanishga harakat qildilar; unda mashqlar ustida ishlash jarayonini kichik guruhlar bilan ishlash usuli asosida tashkil etishga urindilar; yangi mavzularni o'tishda ham uni

mustahkamlash jarayonida o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib savol-javoblar olib bordi, amaliy topshiriq va mashqlarni bajarishga undadi.

Darslarni kuzatish bilan bir qatorda o‘qituvchilar bilan quyidagi mazmunda savol-javoblar ham olib bordik. Ular bilan olib borilgan suhbat natijalarining tahlilini quyidagi jadvalda keltiramiz:

<b>Suhbatda qatnashgan o‘qituvchilar soni</b>	<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>	
<b>12</b>	Mashq va topshiriqlarni bajarishda nimalarga e’tibor berasiz?	Mashq va topshiriq shartidagi talab bo‘yicha bajartiraman. (12tadan 8tasi)	Har xil. Ba’zan o‘yinlar asosida tashkil qilaman. (12tadan 4tasi)
<b>14</b>	Mashq bilan topshiriqlarning farqi bormi?	Ikkalasi ham vazifa hisoblanadi. O‘quvchilar bajarishi kerak bo‘lgan ishlar (14tadan 10 tasi)	Topshiriq yangi mavzuni tushuntirish, mashq esa uni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. (14tadan 4tasi)
<b>10</b>	Mashqlar bilan ishlashda qanday usullarda foydalanasiz?	O‘yin va musobaqalardan foydalanaman (10 ta)	
<b>12</b>	O‘quvchilar innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashqlar bilan ishlash jarayonini qanday qabul qilishadi?	O‘yinlar va musobaqalar o‘quvchilar uchun qiziqarli jarayon. Topshiriqlarni yaxshi va tez bajarishadi. (12tadan 10tasi)	Ochiq darslarda ko‘proq foydalanaman.
<b>10</b>	Qanday innovatsion texnologiyalarni bilasiz?	“Klaster”, “Zinamazinga”, “Zanjir”, “Bu bizniki” ..... (10ta)	
<b>14</b>	Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarasi nimada deb o‘ylaysiz?	Ko‘proq ochiq darslarda yaxshi. (14ta)	

O‘tkazilgan so‘rovnomadan ham ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchilarning aksariyat qismi innovatsion texnologiyalardan asosan ochiq darslarda, shuningdek, takrorlash darslarida ko‘proq foydalanishadi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘tilgan



mavzuni mustahkamlash uchun berilgan mashqlarni bajartirishda mashq shartida qoʻyilgan talabni bajartirish bilan kifoyalanadilar. Baʼzi oʻqituvchilar hatto topshiriq va mashqlarning oʻzaro farqiga bormaydilar ham. Bir xil yoʻl bilan mashq va topshiriqlar bajartiriladi, ysʻni ogʻzaki yoki yozma, sinf doskasida yoki daftarga mustaqil bajartirish bilan cheklanadilar.

Biz maktab va akademik litsey oʻquvchilarining kichik guruhlarda ishlash metodi yuzasidan tasavvurlari va qiziqishlarini aniqlash maqsadida ular orasida ham soʻrovnoma oʻtkazdik. Quyida soʻrovnoma namunasi va natijalari tahlilini keltiramiz:

**1. Ona (hozirgi oʻzbek adabiy) tili darslarida darsliklarda berilgan mashqlarni qaysi yoʻllar bilan bajarasizlar?**

A) Daftarda bajaramiz, keyin oʻqib beramiz. B) Biladiganlar doskada bajarishadi, keyin koʻchiramiz. D) Har xil. Baʼzida musobaqa uyushtiriladi.

**2. Darslikda berilgan mashqlarni bajarishda kichik guruhlariga ham boʻlinasizlarmi?**

A) Ha, baʼzan kichik guruhlariga boʻlingan holda jamoa boʻlib bajaramiz. B) Yoʻq, boʻlinmaymiz. D) Doim bir xil emas, asosan yakka tartibda bajaramiz, yoki sinf doskasida.

**3. Oʻqituvchingiz mashqlarni bajartirishda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanadi?**

A) Bilmayman. B) Oʻyin texnologiyasidan. D) Esimda yoʻq.

**4. Qaysi paytlarda koʻproq innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda dars oʻtardingiz?**

A) Ayniqsa takrorlash darslarida. B) Ochiq darslarda. D) Darsning oxirgi vaqtlarida.

**5. Darslarda turli xil innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars oʻtilganda dars siz uchun qiziqarli boʻlarmidi?**

A) Ha, menga juda yoqadi. B) Boshqa darslarga qaraganda qiziqarliroq. D) Unisi ham yaxshi, bunisi ham yaxshi.

## 6. Mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonida guruh bo'lib ishlaganingizda qiyinchiliklar bo'ladimi?

A) Ha, ayrim vaqtlarda. B) Yo'q, chunki har bir ishtirokchining vazifasi aniq bo'ladi. D) Bunda guruh sardorining o'rni katta.

Maktab o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomada 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tahlil natijalarini quyidagi jadvalda keltiramiz:

T/r	O'quvchilar soni		
	A javobni belgilaganlar	B javobni belgilaganlar	D javobni belgilaganlar
1.	27	20	13
2.	18	17	25
3.	17	30	13
4.	20	20	20
5.	20	20	20
6.	20	20	20

“Ona (hozirgi o'zbek adabiy) tili darslarida darsliklarda berilgan mashqlarni qaysi yo'llar bilan bajarasizlar?” degan savolga o'quvchilarning asosiy qismi avval daftarga bajaramiz, keyin o'qib beramiz, deb javob berishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, aksariyat darslarda mustahkamlovchi mashqlarni bajarish jarayonida doimiy bir xil ish bajarib kelishgan. “Darslikda berilgan mashqlarni bajarishda kichik guruhlarga ham bo'linasizlarmi?” degan savolga o'quvchilarning bir qismigina kichik guruhlarga bo'linib bajarishlarini ta'kidlashgan. 3-savolga ko'pchilik o'quvchilar o'yin texnologiyalardan foydalanilayotganligini bildirishgan. Demak, innovatsion texnologiyalardan faqat o'yin texnologiyalari darslarda ko'proq qo'llanilganligini ta'kidlashgan. “Qaysi paytlarda ko'proq innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda dars o'tardingiz?”, “Darslarda turli xil innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tilganda dars siz uchun qiziqarli bo'larmidi?” va “Mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonida guruh bo'lib ishlaganingizda qiyinchiliklar bo'ladimi?” degan savollarga bir xilda tengday javob berishgan.

Endi akademik litsey o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga to'xtalamiz. So'rovnomada litsey o'quvchilaridan jami 30 ta o'quvchi qatnashdi. Ular bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha:

T/r	O‘quvchilar soni		
	A javobni belgi-laganlar	B javobni belgi-laganlar	D javobni belgi-laganlar
1.	17	10	3
2.	8	7	15
3.	7	20	3
4.	10	10	10
5.	10	10	10
6.	10	10	10

Akademik litsey o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlili ham maktabda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari bilan aynan bir xil. Natijalar o‘xshash. Demak, bularda ham o‘yin texnologiyalaridan foydalanish asosiy qo‘llanilgan texnologiyalar qatoridan o‘rin olgan. Shuningdek, kichik guruhlarda ishlash metodidan foydalanilishi ta’kidlangan.

### **Bob yuzasidan xulosalar**

Dastavval, o‘quv topshirig‘i va mashq tushunchalariga aniqlik kiritildi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati<sup>53</sup>da **“mashq”** atamasiga keltirilgan ta’rif berilib, undan ona tili darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan variant saralab olindi. Ayni shunday ta’rif **“topshiriq”** atamasi doirasida ko‘rib chiqildi. Uning ham barcha variantlari o‘rganilib, ularda aynan ona tili mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan ta’rifi to‘lig‘icha izohlandi.

Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar ham o‘rganilib chiqildi va tahlilga tortildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili va akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishda topshiriq va mashqlar tizimini ishlab shiqish va undan samarali foydalanish muammolari bir qator metodist olimlar T.G‘aniyev, M.Mahmudov, E.M.Sorokina, A.G‘ulomov, R.Safarova, G.Urumboyeva, M.Saidov, V.A.Saakyan, Sh.Yusupova, T.Ziyodova, M.Sobirova, N.Qosimova, T.A.Yusupova, M.Rixsiyeva, Bobomurodova va A.Ergashevalar tomonidan tadqiq

<sup>53</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.П. Е-М/Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқалар: ЎзРФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Далат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.

etilgan. O‘zlarining ilmiy ishlarida rekonstruktiv, reproduktiv hamda ijodiy mashq turlari haqida batafsil ma’lumot berishgan, tasnif qilishgan.

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta’limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish masalasi, birinchi navbatda, o‘quvchiga bajartiladigan mashq va topshiriqlar mazmuni bilan belgilansa, ikkinchidan esa, shu jarayonni qanday tashkil qilish bilan ham bog‘liq. Ta’lim samaradorligini oshirish, til sathlarini o‘qitishda o‘quvchilarning mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonlarini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish masalalarini to‘liq hal etishda mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish yoki darsliklardagi mashqlar ustida ishlashni tashkil etishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish lozim deb o‘ylaymiz.

Ana shu masalalarni hal etishga qaratilgan o‘zbek tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanida nisbatan kamroq o‘rganilganligi sezildi. Ular tomonidan yaratilgan dissertatsiyalarda, monografiyalarda, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va tavsiyalarida, davriy nashrlarda chop etilgan maqola va tezislarda bu masalaga juda kam e’tibor qilingan.

Demak, mashqlar, o‘quv topshiriqlari tushunchalari doimiy ravishda metodist-olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Chunki ona til darslarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Topshiriqlarni bajartirish va mashq qilish orqaligina o‘quvchilarda ko‘nikmalarni shakllantirish, va malakaga ega qilish mumkin. Busiz bironta til sathlariga oid nazariy bilimlar kundalik hayotda doimiy asqotadigan kompetensiyaga aylanmasligi mumkin. Bu esa kompetensiyaga yo‘naltirilgan ona tili ta’limining maqsadini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘qituvchi umumta’lim maktablarining ona tili darslarida va akademik litseylarning hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarini rejalashtirish va tashkil etishda o‘quv fanidan yaratilgan davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, darslik, shu darslik asosida tayyorlangan “O‘qituvchi kitobi” metodik ko‘rsatmalariga tayanadi. Darslik standart va o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqib tuziladi. “O‘qituvchi

kitobi“ undan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini beradi. Shunday bo‘lgach, biz dastavval umumta’lim maktablarining “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklari doirasida shu darsliklarning fanni o‘qitishda undagi mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foyalanish uchun beradigan imkoniyatlari haqida ham fikr yuritilgan.

Darsliklar tahlilini o‘zaro bir-biriga daxldor bo‘lgan umumta’lim maktablarining “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarida yangi mavzuni o‘rganishga doir o‘quv topshiriqlari va mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkonini beruvchi fonetik hodisalar, leksika, ibora, morfologik shakllar, sintaktik qurilmalar, sintaktik figuralarni mustahkamlashga oid mashqlar va ularning shartlarini o‘rganish va tahlil qilish, “O‘qituvchi kitobi”da mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir tavsiyalarning mavjudligi masalalari o‘rganildi. Jadvallarda umumta’lim maktablarining 5-sinf “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarida berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi nazariy ma’lumotlar va amaliy mashqlar hamda topshiriqlarni ajratdik.

Dastavval, umumta’lim maktablari ona tili mashg‘ulotlarida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayoni o‘rganildi. Mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashni tashkil etish jarayonlari dastlab dars kuzatish yo‘li bilan o‘rganildi. Jami bo‘lib maktablarda 10 ta, akademik litseylarda esa 25ta dars kuzatildi. Bunda ona tili o‘qituvchilarining ish tajribasidagi yutuqlarni aniqlash, kamchiliklar va ularning sabablari haqida malumotlar to‘plash, dars jarayonida mashqlar ustida ishlashni tashkil qilishning qanday amalga oshirilayotganligini bilib olish, maktab va akademik litseyda mashqlar ustida ishlash jarayonida qaysi innovatsion texnologiyalarni qo‘llayotganligini bilish maqsad qilib olindi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining qay ahvolda ekanligiga, shuningdek, mashqlar ustida ishlashga oid ko‘nikma va malakalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

## II BOB.

### MUSTAHKAMLOVCHI MASHQLARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BAJARTIRISH METODIKASI

#### 2.1. Mustahkamlovchi mashqlarni innovatsion texnologiyalar yordamida bajartirish mazmuni

Dastavval, umumta'lim maktablari "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida berilgan topshiriq va mashqlarning mazmuni, bajarilish talablari, qay maqsadga yo'naltirilganligi, unda o'qituvchi va o'quvchi o'rni hamda o'zaro munosabati qay darajada e'tiborga olinganligi ustida fikr yuritamiz:

Darsliklardagi barcha o'quvchilarga taqdim etilgan ish turlari ikki xil nom bilan yuritiladi: a) topshiriqlar; b) mashqlar<sup>54</sup>.

**1. Mazmuniga ko'ra.** Bunda topshiriqlar yangi mavzuni tushuntirishda amaliy ish vazifasini bajaradi. Ya'ni yangi mavzuni o'tishdan oldin o'quvchi amaliy bilimlarini ishga soladi. Uzviylashtirilgan dasturda ta'lim usuli induktiv ta'lim usuli sifatida belgilangan, ya'ni amaliy faoliyatdan nazariy ma'lumotlarga egalashga qaratilgan. Masalan, 165-dars. Uyadosh so'zlar. Bu darsni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'qituvchi 2ta topshiriqni (**1-topshiriq.** Meva guruhiga kiruvchi otlarni sanang. **2-topshiriq.** Parranda guruhiga kiruvchi otlarni sanang.) bajarishni talab qiladi. O'quvchilar uyadosh so'zlar haqidagi nazariy bilimlarni o'rganmasdan turib, o'zlarining amaliy bilimlariga tayangan holda meva va parranda nomlarini sanab beradilar. Ayni shu ularga xos bo'lgan bir uyaga mansub so'zlar bir-birlariga yaqin jihatlari bilan oydinlashadi. O'quvchilar tomonidan o'zaro mazmuniy yaqinlikni tushuntirish orqali uyadosh so'zlarga ta'rif beradi.

Demak, mazmuniga ko'ra topshiriqlar yangi mavzuni tushuntirish jarayoni uchun asos vazifasini bajaradi.

---

<sup>54</sup>. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 224 b. Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-, 2-, 3- kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 1-, 2-, 3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent: "ILM ZIYO" 2013. – B. 345

Keling endi ayni mavzuga bag'ishlangan 497-mashqni olaylik. Unda o'quvchi o'rgangan ham nazariy, ham amaliy bilimni mustahkamlash uchun harakat qiladi. Mashqning sharti quyidagicha: *Quyida berilgan so'zlarni qo'y va qoramol so'zlari ostiga birlashtirib yozing.*

Buzoq, qo'zichoq, qorako'l terisi, sigir, sovliq, novvos, qo'chqor, jun, buzoqboqar, qo'ychivon.

Bunda ikkiga ajratib yozish ishini mashq qiladi. Demak, bilganlari asosida uyadosh so'zlar qanday so'zlar ekanligini tez o'zlashtirib olishlari uchun mashq qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, bunda o'quvchi o'z bilimi ustida uni yanada mustahkamlash uchun mashq qiladi.

**2. Bajarilish talabiga ko'ra.** Topshiriqlarning mazmuni o'quvchining hech qanday tasavvurlarsiz o'zlaridagi hayotiy bilim orqali amalga oshiriladi. Masalan, qanday meva va parrandalarning nomlarini bilish bilangina kifoyalanadilar. Kundalik iste'mol qiladigan yoki rasmlar orqali eslab qolgan mevalarining nomlarini aytib beradilar, topshiriqni bajaradilar. 497-mashqni bajarish jarayonida esa talab qilingan so'zlar vositasida ularni ikki ustunga ajratadilar, bunda andoza asosida yana bir bor mashq qilish orqali o'zlarining bilimlarini mustahkamlaydi. Demak, mashqlar mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

**3. Qay maqsadga yo'naltirilganligiga ko'ra.** Topshiriqlarda asosiy maqsad yangi mavzuni o'tish va tushuntirish jarayoniga amaliy tayyorgarlik ko'rish maqsad qilib olinsa, mashqlarda o'tilgan mavzu ham nazariy, ham amaliy jihatdan mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

**4. O'quvchi va o'qituvchi o'rni va o'zaro munosabatiga ko'ra.** Har ikkalasida ham asosiy vazifani bajaruvchi o'quvchi sanaladi. Chunki "Ona tilidan umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi (1-9-sinflar)"<sup>55</sup> da ta'limning shakli sifatida induktiv ta'lim belgilab berilgan. Induktiv ta'lim mazmuniga ko'ra, bajariladigan har bir ishda o'quvchi asosiy bajaruvchi, faol shaxs sifatida ishtirik etadi,

---

<sup>55</sup> Абдураимова М., Зиёдуллаева Г. Она тили фанидан умумий ўрта таълимнинг ўқув дастури (1 – 9 - синфлар), Республика таълим маркази, – Т: 2010, 40-бет.

o‘qituvchi esa ularning faoliyatini boshqarib turadi, to‘g‘ri bajarishga yo‘naltiradi, tekshiradi va baholaydi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi sifatida mustahkamlovchi mashqlar deb alohida ta’kidlanishi aynan o‘tilganlarni mustahkamlashga qaratilgan “mashq” atamasi nomi bilan yuritilayotgan ish turini tanlab olganimizdadir.

Mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jarayonida samarador sanaladigan usullarga o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalaridan kelib chiqib ularni ikkiga ajratdik:

Umumta’lim maktablari ona tili darslarida mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jarayonida samarador deya tavsiya etayotgan usullarga quyidagilarni kiritdik:

- ❖ “Klaster” texnologiyasi.
- ❖ “..... ortiqcha” texnologiyasi.
- ❖ “Kichik guruhlarda ishlash” metodi.
- ❖ Integratsiyalashgan ta’lim metodi.
- ❖ “Bingo texnologiyasi.
- ❖ Esse ijodiy ish turi.
- ❖ “T – sxemasi” texnologiyasi.
- ❖ “Bu bizniki” texnologiyasi.
- ❖ “Izohli lug‘at” bilan ishlash usuli.
- ❖ Talaffuz va imlo mashqlari.
- ❖ “Imlo lug‘ati ustida ishlash” usuli.
- ❖ “Zanjir” texnologiyasi.
- ❖ Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi texnologiyasi.
- ❖ “Sharhlash” usuli.
- ❖ Illyustrativ ta’lim.
- ❖ Qiyoslash usuli.

Akademik litseylarning hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jarayoni uchun tavsiya qilinadigan usullar umumta’lim maktablari uchun tavsiya etilayotgan usullarda hajman va mazmunan farq qiladi. Ular uchun quyidagilarni tavsiya etiladi:



- ❖ “Klaster” texnologiyasi.
- ❖ “..... ortiqcha” texnologiyasi.
- ❖ “Kichik guruhlarda ishlash” metodi.
- ❖ Integratsiyalashgan ta’lim metodi.
- ❖ “Bingo texnologiyasi.
- ❖ Esse ijodiy ish turi.
- ❖ “Bu bizniki” texnologiyasi.
- ❖ “Izohli lug‘at” bilan ishlash usuli.
- ❖ Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi texnologiyasi.
- ❖ “Sharhlash” usuli.

Bu tavsiya qilinayotgan usullarni samarador bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelishimizning asosiy sabablaridan biri – bu darsliklarda berilgan barcha mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jarayonida qaysi innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va uning qay darajada ekanligini aniqlashimizdir. Mazmunan shu texnologiyani tatbiq etish imkoniyati yuqori bo‘lsa, aynan uni tashkil etish jarayoni oson va qulay kechadi. O‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini ham to‘g‘ri yo‘yish imkonini ham beradi. Bu esa dars jarayonining faol kechishiga, unumli bo‘lishiga, o‘quvchilarning darsga va o‘tilayotgan mavzuni o‘zlashtirishiga nisbatan qiziqishini oshishiga, ayniqsa o‘quvchi nutq madaniyatini va jamoada hamkorlikda ishlash madaniyatining shakllanishiga, mustaqil fikr yuritish qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Biz kutayotgan natija ham ayni shu holat bilan belgilanadi. Chunki o‘tkazilgan tajriba-sinov jarayonlari va so‘rovnoma natijalari ham shuni tasdiqlaydi. Dastur va darsliklarning tahlili ham imkoniyatlar mavjudligini asoslaydi.

Keling, endi yuqorida sanab o‘tilgan metod, usul va texnologiyalarni ba’zi bir mashqlar misolida ko‘rib chiqaylik:

➤ **“Kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik” texnologiyasi.** 7-sinf “Ona tili” darsligi misolida o‘rganamiz. Sinf o‘quvchilari beshta kichik guruhga ajratiladi va ularga 119-mashqda berilgan so‘zlar yozilgan mayda o‘ramlardan tanlab olish imkoniyati beriladi. Har bir guruh sardori chiqib bittadan o‘ramlardan

birini tanlab olishadi. Har bir guruhda 5 yoki 6 o'quvchi bo'ladi. Ularga bir varaq oq qog'oz beriladi. Qog'ozning ko'rinishi oldindan quyidagi ko'rinishda shakllantirilib beriladi. Chap tomon burchagida guruh sardori va a'zolari ro'yxati yozilishi uchun joy ajratiladi. O'ng tomon pastiga o'qituvchi baholashga xizmat qiluvchi fikr va mulohazalari uchun joy qoldiriladi. Qog'ozning o'rta qismida esa o'quvchilar vazifani bajarishi va yozishi uchun katta qismi qoldiriladi.

**119-mashq. Kitob, dars, uy, harakat qilish, orzu** so'zlarini turlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bunda guruh a'zolaridan uch bosqichli ishni 5 daqiqa ichida bajarishi talab qilinadi.

**Birinchi bosqich:** Ular so'zni o'qib chiqishadi va uni kelishik qo'shimchalari bilan turlashadi.

**Ikkinchi bosqich:** Mazmuniy ketma-ketlikni saqlagan holda turlangan so'zlar asosida gap tuzishadi.

**Uchunchi bosqich:** Bu bosqichda matnda ishtirok etgan so'zlar va matn mazmunidan kelib chiqib maqol va hikmatli so'zlardan namunalar yozish talab qilinadi. Bu esa o'quvchilardan tezkorlikni va kreativlikni talab qiladi.

Quyida bitta kichik guruh bajargan ishdan namuna keltiramiz:

**Birinchi bosqich:** *Kitob* so'zi.

**Bosh kelishik:** *kitob*

**Qaratqich kelishigi:** *kitobning*

**Tushum kelishigi:** *kitobni*

**Jo'nalish kelishigi:** *kitobga*

**O'rin-payt kelishigi:** *kitobda*

**Chiqish kelishigi:** *kitobdan*

**Ikkinchi bosqich:** *Kitob insonning eng yaqin do'stidir. Inson kitobdan juda ko'p narasalarni o'rgana oladi. Shuning uchun ham kitobni qadrlashadi. Bugungi kunda kitobga boshqacha nazar bilan qaralmoqda, ya'ni uni e'zozlashmoqda. Kitobda hikmat ko'pligi bejiz emas, albatta. Xulasa shuki, yoshu qari – barchamiz kitobdan minnatdor bo'lishimiz kerak.*

**Uchinchi bosqich:** *Kitob – aql qayrog‘i. Kitob ko‘rmagan kalla – Giyoh unmagan dala.*

7-sinf “Ona tili” darsligida berilgan bu mashqning shartiga ko‘ra, o‘quvchilar mashq shartini o‘qib, undagi so‘zlarni kelishik qo‘shimchalari bilan turlash vazifasini bajarardilar, xolos.

34-dars. **KELISHIK QO‘SHIMCHALARI.** Bu darsdan o‘rin olgan 115-, 116-, 117-, 118-, 119-mashqlarning barchasida bir xil turagi ish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarda zerikishni paydo qiladi, mustaqil fikrlashni chegaralaydi, doim bir xil vaziyatda yashashga ko‘nikishni yuzaga keltiradi. Hozirgi davr ona tili ta‘limi esa o‘quvchida mustaqil mushohada yuritish madaniyatini va uni og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishdek buyuk vazifani hal etishga qaratilgan. Biz shu ma‘noda darslikdagi ba‘zi bir mashqlarni bajartirish jarayonini kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik texnologiyasi asosida tashkil etishni tavsiya qildik.

➤ **Bingo texnologiyasi.** 8-sinf “Ona tili” darsligida berilgan 88-darsning 245-mashq misolida bu texnologiyani ko‘rib chiqamiz. Unda 2ta topshiriq berilgan. Ulardan birinchisini bajarish jarayonida ayni shu texnologiyani tatbiq etish mumkin. Chunki **“O‘quvchilar kecha maktab bog‘ida pishib yetilgan o‘riklarni terishdi”** o‘qib chiqib, uni 1) faqat uyushiq egali; 2) faqat uyushiq payt holli; 3) faqat uyushiq qaratqich aniqlovchili; 4) faqat uyushiq sifatlovchili aniqlovchili; 5) faqat uyushiq vositasiz to‘ldiruvchili gaplar hosil qilishi kerak. Buning uchun quyidagicha bingo-jadval tuziladi va o‘quvchilarga yetarli tarzda ko‘paytiriladi:



	<b>B</b>	<b>I</b>	<b>N</b>	<b>G</b>	<b>O</b>
	Faqat uyushiq egali gaplar	Faqat uyushiq payt holli gaplar	Faqat uyushiq qaratqich aniqlovchili gaplar	Faqat uyushiq sifatlovchi aniqlovchili gaplar	Faqat uyushiq vositasiz to‘ldiruvchili gaplar
1					
2					
3					
4					
5					


Uni o‘quvchilar bu tarzda bajarishdi. Unda gapni talab bo‘yicha uyushiq bo‘laklar hisobiga kengaytirishdi, shuningdek, uyushiq bo‘laklarga xos qoidalarni ham bayon etishdi.

	<b>B</b>	<b>I</b>	<b>N</b>	<b>G</b>	<b>O</b>
	Faqat uyushiq egali gaplar	Faqat uyushiq payt holli gaplar	Faqat uyushiq qaratqich aniqlovchili gaplar	Faqat uyushiq sifatlovchi aniqlovchili gaplar	Faqat uyushiq vositasiz to‘ldiruvchili gaplar
1	O‘qituvchilar va o‘quvchilar kecha maktab bog‘ida pishib yetilgan o‘riklarni terishdi.	O‘quvchilar kecha va bugun maktab bog‘ida pishib yetilgan o‘riklarni terishdi.	O‘quvchilar kecha va bugun maktab bog‘ida pishib yetilgan o‘riklarni terishdi.	O‘quvchilar kecha bog‘cha va maktab bog‘ida pishib yetilgan va mazali o‘riklarni terishdi.	O‘quvchilar kecha maktab bog‘ida pishib yetilgan o‘riklarni va olmalarni terishdi.
2	Ot bilan ifodalangan egalar uyushib kela oladi	Sifat bilan ifodalangan payt holi uyushib keladi.	Uyushiq qaratqichli aniqlovchilar kimning? yoki nimaning? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.	Sifatlovchi aniqlovchilar sifat bilan ifodalanib keladi.	Vositasiz to‘ldiruvchilar gapda kimni? va nima? so‘roqlariga javob bo‘ladi.
3	Harakat nomi bilan ifodalangan egalar uyushib kela oladi.	Son bilan ifodalangan payt holi uyushib kela oladi.	Ikkita qaratqichli aniqlovchilar uyushib kelsa, ular bir-birlari bilan teng bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi.	Sifatlovchi aniqlovchilar son bilan ifodalanib keladi.	Vositasiz to‘ldiruvchilar ot bilan ifodalanib keladi.
4	Ikkita ega uyushib kelsa, ular bir-birlari bilan biriktiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi.	Ravish bilan ifodalangan payt holi uyushib kela oladi.	Qaratqichli aniqlovchilar ot bilan ifodalanib keladi.	Sifatlovchi aniqlovchilar ega, to‘ldiruvchi va holdan oldin keladi.	Vositasiz to‘ldiruvchilar son bilan ifodalanib keladi.
5	Uyushiq egalar kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.	Payt holi gapda qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.	Qaratqichli aniqlovchilar harakat nomi bilan ifodalanadi.	Sifatlovchi aniqlovchilar qanday? va qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladi.	Vositasiz to‘ldiruvchilar otlashgan sifat bilan ifodalanib keladi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘tilganlarni takrorlashda va qayta esga tushirishda “Bingo” texnologiyasi o‘quvchidan ancha ma’lumot bilishni talab qiladi. Chunki gorizontal va bertikal joylashgan kataklarni sanab chiqadigan bo‘lsangiz, ularning soni 25 taga yetadi. Demak, bu texnologiya yordamida o‘quvchi 25 ta nazariy va

amaliy bilimhga ega bo'lishi shart. Shundagina barcha kataklarni o'z bilimlari hisobiga to'ldira oladi. Bu texnologiya asosida ishlash o'quvchilardan tezkorlikni, mustaqil fikrlashni, manbalardan foydalana olishni, xatosiz yozishni talab qiladi, bu esa, aynan o'quvchida shu ko'nikma va malakalarning yanada rivojlanishini hamda shakllanishini ta'minlaydi.

➤ **Talaffuz va imlo mashqlari.** Bu usul asosan fonetika va grafika, orfoepiya va orfografiya bo'limlarida berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonida yaxshi samara beradi. Biz bunda mashqni bajartirishda quyidagi bosqichli jarayonni tavsiya qilishni ma'qul deb topdik:



Shu tavsiyalarimizni umumta'lim maktablari "Ona tili" darsligining "Fonetika. Grafika" bo'limida berilgan mustahkamlovchi mashqlar misolida ko'rib chiqamiz. Masalan, darslikning 134-berida berilgan 378-mashq<sup>56</sup>ni olaylik. Dastavval, chizmaga binoan, mashq sharti o'qiladi. Fonetika bo'yicha qilinadigan ishlar tushuntiriladi, unga ko'ra o'quvchilar aytilishi va yozilishi farq qilayotgan so'zlarni o'qib chiqadilar va ulardagi farqni bilishga va izohlashga harakat qiladilar. Endi ularga xato talaffuz qilingan variant diktovka asosida o'qib eshittiriladi, ular egallagan bilimlari asosida ularning to'g'ri variantini eslab yozishlari kerakligi talab qilinadi. O'quvchilar talab qilinayotgan vazifa bilan bir

<sup>56</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Z.Jo'raboyeva. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan 4-nashri. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2015. 134-bet.

qatorida qo‘shimcha vazifa – chiroyli va tushunarli qilib ham yozishni uddalashlari kerak. Bunda ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida bir necha jarayon ustida ishlaydilar.

➤ **“Zanjir” texnologiyasi.** Bundan ko‘proq “Leksikologiya” bolimiga oid mustahkamlovchi mashqlarni ijodiy bajartish jarayonida foydalanish mumkin. Yuqorida tilga olingan darslikning 179-betida berilgan 168-dars. “Ma’nodosh so‘zlarda umumiy va xususiy ma’nolar” mavzusiga oid mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jaryoni bilan bog‘liq tavsiyalarimizni bayon etamiz. 511-mashqni bajartirishda “Zanjir” texnologiyasi yaxshi samara beradi.


**511-mashq.** Ma’nodosh so‘zlar qatorini aniqlang.

Issiq, yurt, zamon, yugurmoq, sezgir, Vatan, iliq, ziyrak, vaqt, chopmoq, jazirama, diyor, hushyor, payt.


Shu so‘zlardan zanjir hosil qilishi lozimligi uqtiriladi. Ular o‘zlari bilgan bilimlari asosida zanjir hosil qilishadi. Biroq oldindan ularga zanjirlar soni aytilmaydi. Ular hosil qilgan zanjirlar o‘quvchilarning o‘zlaridagi leksik zapaslari va mashq matnida berilgan so‘zlar hisobidan hosil qilinishi kerak. Biroq oldindan ularga zanjirlar soni aytilmaydi. Natija qancha zanjir hosil qilinganligi, har bir zanjirdagi so‘zlarning miqdori, o‘quvchilarning ularni hosil qilishdagi mahorati va so‘z boyligi bilan belgilanadi.

Quyida o‘quvchilar hosil qilgan zanjirlardan namuna keltiramiz:


**Birinchi zanjir:**




**Ikkinchi zanjir:**



**Ichinchi zanjir:**



**To‘rtinchi zanjir:**



***Beshinchi zanjir:***



Endi tavsiya qilinayotga metod, usul va texnologiyalarimizni akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi va darslari misolida ko‘rib chiqamiz:

**“Klaster” texnologiyasi.** Klaster – bu ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonining yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan, metod va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish. Bu texnologiyadan akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilgan mashqlarni bajartirish jarayonida unumli foydalanish mumkin. Masalan, akademik litseylarning 2-bosqichi uchun mo‘ljallangan qismida 48-mashq<sup>57</sup> berilgan. Uni bajartirishda aynan “Klaster” texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi.

**48-mashq.** *O‘qing. Alisher Navoiy gulni qanday ifodalaganiga e’tibor bering. Gul va giyohlarning leksik ma’nosini izohlang.*

Alisher Navoiy o‘z asarlarida gul, uning vazifasini o‘taydigan giyoh va o‘simliklar, gulga aloqador ashyolar, shuningdek, mavjudotlarning juda ko‘pidan va xilma-xillaridan keng foydalanadi. Shu bilan bir vaqtda ulug‘ shoir o‘z maqsadlarini ifodalashda gul va gulistonlardan ayrim g‘azallarining ba’zi baytlaridagina foydalanib qo‘ya qolmay, balki o‘nlab g‘azallarini butun-butunligicha ana shunday ifodalashga bag‘ishlaydi. Ularda o‘nlab xildagi gullar: nasrin, nastarin, nargis, nilufar, savsan, rayhon, xino, zanboq guli, lola, sadbarg, ra’no, hazorg‘uncha, zag‘far, sumanpar; yoqimli hidi va go‘zal ko‘rinishi bilan gulni eslatuvchi giyohlar: sunbul, ishqiqi pechan; manzarali daraxtlar: sarv, ar-ar, arg‘uvon, shamshod kabilar haqida ma’lumot beradi. Ya’ni: guloroy – gul bilan

---

<sup>57</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-, 2-, 3- kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-, 2-, 3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent: “ILM ZIYO” 2013. – B. 345

bezangan, gulrez – gul to‘kuvchi, gulposh – gul yopingan, qip-qizil gulday kiyingan, gulbang – yoqumli ovoz, bulbul ovozi, guldastaband – majozan quyosh nurlari kabi iboralar Navoiy asarlarining mazmunini ochib berishda mislsiz so‘z xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida aytib o‘tilgan iboralarning aksariyatini ulug‘ Navoiy sinonimiya vositasida turli variantlarda ishlatgan: gul, chechak, vard, shugufa kabi. Shu bilan birga, gulga oid ko‘pchilik iboralardan omonimiya yordamida turli ma‘nolar hosil qilgan: gul (chechak), gul (bezak), gul (yashnamoq), gul (mahbuba), gul (go‘dak), gul (umuman inson), gul (qizamiq) singari.

Buyuk shoirning asarlarida gul tushunchasidan foydalanish ko‘lami keng va katta.

(O.Valixonov)

Mana shu mashqni bajartirishda “Klaster”dan foydalanish mumkin. Unga quyidagicha topshiriq qo‘yiladi: *Mashqda berilgan matnni o‘qib, undan A.Navoiy o‘z asarlarida foydalangan gullar, giyohlar va boshqa mavjudotlarning nomlari asosida klaster yarating.*

Mashqning bajarilib bo‘lingandan keyingi eng to‘g‘ri bajarilgan varianti quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.





➤ **“Bu bizniki” texnologiyasi.** Buni tashkil qilish jarayoni asosan kichik guruhlarda ishlash ya’ni hamkorlik texnologiyasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilgan 56-mashq<sup>58</sup> berilgan. Uni bajarish jarayonida “Bu bizniki” texnologiyasidan foydalanish mumkin. Guruh o‘quvchilari 5 ta kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruh gap bo‘laklari nomlari bilan nomlanadi: “Ega”, “Kesim”, “Hol”, “Aniqllovchi”, “To‘ldiruvchi”. Har bir guruh o‘zi nomlangan guruh nomi bilan bog‘liq gap bo‘laklarini topib qayd qilib borishlari lozim. Har bir guruh o‘zini topib ularning qaysi so‘z bilan bog‘langanligini izohlaydilar.

**56-mashq. O‘qing. Gapni bo‘laklarga ajrating.**

#### O‘TOV

Turkiy xalqlarning dastlabki xo‘jalik turlaridan biri bo‘lgan chorvachilik turli sabablarga ko‘ra makon o‘zgartirish hamda urushlar tarixi bilan bevosita aloqador. Ana shunday tarixiy vaziyatlarda mazkur xalqlar xohlagan vaqtda tikib yashab, xohlagan paytda yig‘ib, ko‘chiga ortib ketishiga qulay bo‘lgan ko‘chma uylardan (o‘tovlardan) foydalanganlar.

“O‘tov” so‘zi o‘zbek tilida “kigiz uy” ma’nosini bildirsa, qirg‘iz, qozoq, turkman tillarida katta uyga nisbatan kichik uyni ifodalaydi. O‘tovlar yengil, tabiiy materiallardan quriladi. O‘tovlarning yog‘och qismi erkak ustalar tomonidan, kigiz qismi esa ayollarning qo‘l mehnati natijasida amaliy san’at asari darajasiga ko‘tarilgan.

Ushbu matndagi gaplardan o‘zlariga tegishli bo‘lgan gap bo‘laklarini aniqlab, ularning nima uchun o‘zlariga tegishli ekanligini va ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda tushuntirib beradilar.

**“Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi” texnologiyasi.** Bu texnologiya bitiruv malakaviy ishimga ilmiy rahbarlik qilayotgan ustozim T.Yusupovanning

---

<sup>58</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-, 2-, 3- kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-, 2-, 3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent: “ILM ZIYO” 2013. – B. 345.

faoliyati bilan bog‘liq. Uni aprobatsiyadan o‘tkazish maqsadida tavsiya qilindi. Biz buni ham akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilgan bir qator mashqlarni bajartirish jarayonida unumli qo‘llash mumkin. Ayniqsa, “Leksikologiya” va “Uslubiyat” bolimlariga tegishli mustahkamlovchi mashqlarni bajartirishda juda ham qo‘l keladi. Masalan, “Leksikologiya” bolimidagi ma’nodosh so‘zlarga oid berilgan mashqlarni yoki “Uslubiyat” bo‘limidagi nutq uslublari turlariga oid mashqlarni bajartirishda samarali foydalanish mumkin.

Uslubiyat mavzusi mashqlariga tatbiq etish misolida ko‘rib chiqamiz. Uning texnologiyasini, ya’ni ishlash mexanizmini quyidagi jadvalda aniq ko‘rsatib berish mumkin.

<b><i>Bosqichlar</i></b>	<b><i>Amaliy ishlarni bajarish mazmuni</i></b>	<b><i>Nazariy xulosalar chiqarish</i></b>
<b><i>1-bosqich:</i></b>	Bu bosqichda o‘quvchilarga matn yaratish vazifasi beriladi. Uni yaratish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo‘ladi. Matn uchun mavzu tanlanadi.	
<b><i>1A-bosqichi</i></b>	Oddiy so‘zlashuv uslubiga oid matn yaratilish evaziga qilib beriladi. Unda o‘quvchiga hech qanday cheklov qo‘yilmaydi.	O‘zlari yaratgan matn asosida undagi shevaga xos so‘zlar va talaffuzdagi hamda imlogi adabiy tilga yot bo‘lgan o‘rinlar aniqlanadi.
<b><i>1B-bosqichi</i></b>	Bu bosqichda o‘quvchiga ayni shu matnni adabiy so‘zlashuv uslubidagi qoidalari asosida ishlab chiqish vazifa qilib yuklanadi.	Adabiy tilga xos bo‘lmagan jihatlar tahlil qilinadi. Shevaga xos so‘zlar, varvarizmlar, talaffuz va imlo qoidalari buzilmaganligi, adabiy til me’yorlariga amal qilinganligi haqida fikrlashadilar.
<b><i>2-bosqich</i></b>	Yuqorida yaratilayotgan matn asosida rasmiy uslubdagi hujjatlardan birini yaratish vazifasi topshiriladi. Masalan, “E’lon yaratish” vazifa qilib berilishi mumkin.	Rasmiy uslub janrlarini sanab beradilar, rasmiy uslubdagi har qanday matn o‘zining qat’iy qolipiga ega bo‘lishini ta’kidlaydilar, undagi leksik va grammatik belgilarni aniqlaydilar.
<b><i>3-bosqich</i></b>	Yuqoridagi adabiy so‘zlashuv va rasmiy uslubdagi mazmun saqlangan holda uni publisistik matnga aylantirish vazifa qilib beriladi.	Bu uslubning eng yorqin belgilaridan biri – bu uning targ‘ibot-tashviqotga yonalganligi aytishadi, uning asosiy

		belgilaridan biri – bu ijtimoiy-siyosiy leksemalardan iborat ekanligi qayd qilinadi. Bu uslubda qisman bo‘lsa-da badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi ham yodga olinadi.
<b>4-bosqich</b>	Bu bosqichda publisistik matn mazmunidan kelib chiqqan va ba’zi so‘zlarni saqlab qolgan holda undan badiiy matn yaratish yoki ayni shu mazmuni qamrab olgan badiiy asardan parcha keltirish talab qilinadi.	Bu uslubning asosiy belgilari – bu badiiy tur va janrlarining xilma-xilligi, badiiy tasvir vositalari: jonlantirish, gradatsiya, metofora, metonimiya, sinekdoxa, tajnis... kabilarning ishlatilishini ta’kidlaydilar.
<b>5-bosqich</b>	Oxirgi bosqichda badiiy matn asosida ilmiy matn yaratish vazifasi yuklanadi.	Ilmiy uslubning asosiy belgilaridan biri – bu unda atama, ya’ni ilmiy terminlarning qo‘llanilishi va matn tuzilishining murakkab ekanligi bilan belgilanilishin ta’kidlaydilar.

**212-mashq.** *Iqtisodiyot sohasiga oid quyidagi matnni o‘qing. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering. Atamalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va izohlang.*

*Eslatma: Biz bu yerda mashqning to‘liq matnini keltirmaymiz. Chunki matn ustida emas, balki undagi “bozor” atamasi ustida ishlaymiz.*

Dastavval, o‘quvchilarga o‘zlari kundalik so‘zlashib yurgan tilida matn yaratish ishi topshiriladi. Matn mavzusi bozor tanlanadi. Unda o‘quvchi dialogdan foydalanishi mumkin. O‘zaro suhbatlarida (otasi bilan, onasi bilan, o‘rtoqlari bilan, qo‘shnilari bilan, ukase yoki singlisi bilan o‘tadigan suhbatlar manba bo‘ladi) bemalol shevaga xos so‘zlardan foyalanadi, talaffuz va imlo me’yorariga amal qilmaydi, ba’zida o‘rinsiz ruscha va boshqa tillardan foydalanadi, gap bo‘laklarining tartibiga rioya qilmaydi. Oddiy so‘zlashuv uslubida o‘quvchilar tomonidan yozilgan matndan namuna:

– *Oyi bugun bozorga boriyluu.*

- *Nima qilamiza bozorda*
- *Manga posledniy vecherga ko‘yleg oliyluu.*
- *Adangdan sorab keyin boramiz. Pulsiz bozorga borib bo‘lmaydi – ku.*
- *Faqat gipermarketdan kiyim qariymiz xo‘pmi oyijonim.*
- *Ko‘ramiz.*

Aynan yozgan matnlarini adabiy so‘zlashuv uslubiga aylantiradilar.

- *Oyi, bugun bozorga boraylik.*
- *Bozorda nima qilamiz?*
- *Xayrlashuv oqshomiga ko‘ylak olardik.*
- *Pulsiz bozorga borib bo‘lmaydi. Adangdan so‘rab, keyin boramiz.*
- *Oyijon, faqat gipermarketdan kiyim qaraylik, xo‘pmi?*
- *Ko‘ramiz.*

Shundan so‘ng ikkala yozilgan matnni qiyoslagan holda oddiy va adabiy so‘zlashuv uslublarining farqlarini aniqlaydi. Matnni yaratish jarayoni nutqiy kompetensiya talablariga javob bersa, uning til xususiyatlarini aniqlash lingvistik kompetensiya talablariga javob beradi.

Shundan so‘ng ayni shu mazmundan kelib chiqqan holda rasmiy uslub janrlaridan birida matn, ya’ni hujjat yaratish talab qilinadi. Masalan, e’lon yozishni vazifa qilib berish mumkin. O‘quvchilar yozgan e’lonlardan birini namuna sifatida keltiramiz:

## **E’LON!**

### **Hurmatli mehmonlar va shahrimiz aholisi!**

Bozor hududida ozodalikka rioya qilinglar va tartibsizlikka yo‘l qo‘ymanglar.

### **Bozor ma’muriyati**

Bu matn ustida ishlanadi va uning uslubiy belgilari aniqlanadi, nazariy xulosalar chiqariladi. Ko‘rinib turibdiki, amaliy ishni bajarish jarayoni o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantiradi, u haqdagi nazariy bilimlarni egallash jarayoni esa ulardagi lingvistik kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Jarayon ilmiy uslubga qadar davom ettiriladi. Chunki mashq matnida ilmiy uslub ustida ishlash vazifasi berilgan. “Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi” texnologiyasi o‘quvchi uchun tanish va qulay bo‘lgan oddiy so‘zlashuv uslubidan boshlash orqali tashkil etilishi o‘quvchining darsga va fanga bo‘lgan qiziqishining va vazifani bajarishga bo‘lgan mas’ulligining oshishini ta’minlaydi. Shuningdek, kompetensiyaga yo‘naltirilgan standart va o‘quv dasturining talablariga ham to‘la javob beradi.

## **2.2. Innovatsion texnologiyalar yordamida bajariladigan mustahkamlovchi mashqlarlarning turlari**

Darsliklar tahlili natijalariga tayangan holda biz darsliklarda berilgan amaliy o‘quv materiallarini, dastavval, ikki guruhga ajratdik:

### **1. Topshiriqlar.**

### **2. Mashqlar.**

Topshiriqlar deb nazarda tutilgan ish turi mavzudan oldin berilgan bo‘lsa, mashqlar deb nomlangan ish turi esa mavzudan so‘ng berilgan. Ularning mazmuni va talablari o‘rganilganda topshiriqlar yangi mavzuni o‘rganishga yo‘naltirilganligi ko‘zga tashlanadi, ya’ni o‘quvchilarga yangi mavzu tushuntirilmasdan turib ulardan topshiriqlarni bajarish talab qilinadi. Chunki o‘quv dasturida ta’lim usuli sifatida induktiv ta’lim usuli belgilangan. Induktiv ta’lim usuli mohiyati shuki, unda amaliy bilimlardan nazariy xulosalar chiqariladi, soddadan murakkabga qarab boriladi.

Mashqlar atamasi bilan yuritilayotgan ish turida esa o‘quvchi egallagan nazariy va amaliy bilimlariga suyangan holda ish ko‘radilar, ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

Shularni hisobga olgan holda biz barcha ish turini taxminiy ravishda quyidagicha nomladik:

- ***Yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlari;***
- ***Mustahkamlovchi o‘quv mashqlari.***

Yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlarini o'rganib chiqib, amaliy xarakteriga ko'ra quyidagi ichki turlarga ajratishni ma'qul topdik:

- ***Qayta xotirlashga qaratilgan o'quv topshiriqlari;***
- ***Izlanuvchanlikka qaratilgan o'quv topshiriqlari.***

Qayta xotirlashga qaratilgan o'quv topshiriqlarining mazmuni shundan iboratki, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan oldin o'tilganlar yordamida yangi mavzuni o'rganish jarayoniga tayyorgarlik ko'radilar, oldin o'rganilganlarni qayta xotirlaydilar. Masalan, umumta'lim maktablarining 5-sinf "Ona tili" darsligining (107-dars. Unli tovushlar) 122-betida berilgan topshiriqlarni olaylik.

***1-topshiriq.*** Quyidagi so'zlarni bir-biridan farqlab turgan tovushlarni aniqlang.

***Bor, ber, bir, bur, bo'r.***

***2-topshiriq.*** *A, o, e, o', u, n, q, p, m* tovushlarini talaffuz qiling. Bu tovushlarning hosil bo'lishidagi farqni tushuntiring.

1-topshiriqni bajarishda o'quvchilar boshlang'ich sinfda o'rganganlarini qayta eslash orqali har bir so'zni o'qiydilar va so'zlarni bir-biridan farqlantirib turgan tovushni topadilar. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilar faqat so'zlarni o'qish jarayoniga oid bo'lgan tovushlarning talaffuzinigina esga oladilar va bir tovush o'zgarishi so'zning ma'nolaridagi farqni yuzaga keltirishini ta'kidlaydilar.

2-topshiriqni bajarish jarayonida esa boshlang'ich sinfda o'rgangan qanday talaffuz qilinishi kerakligi asosida tovushlarni o'qiydilar, ya'ni talaffuz qiladilar. Unda yana eslash kerak bo'lgan o'rin unli va undosh taovushlar talaffuzidagi farqlar hisoblanadi va ularni mashq matnida berilgan tovushlar orqali tushuntirishga harakat qiladilar.

Izlanuvchanlikka qaratilgan mashqlar mazmuni esa o'quvchilar biroz faollikni talab qilishga va xotirasidagi bilimlari asosida topshiriqni bajarish uchun izlanishga qaratiladi. Masalan, umumta'lim maktablarining 5-sinf "Ona tili" darsligining (106-dars. Nutq tovushi va harf) 121-betida berilgan topshiriqni olaylik.

**Topshiriq.** Quyidagi gapni soʻzlarga, soʻzlarni boʻgʻinlarga, boʻgʻinlarni tovushlarga boʻling:

Dalalarda boshlanadi ish. (Hamid Olimjon)

Bu topshiriqni bajarish jarayonida oʻquvchilar oldigi oʻrganganlari asosida qisman izlangan holda faoliyat koʻrsatadilar. Mashqni bajarish jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib oʻtadilar:

*Birinchi bosqich:* Gapni oʻqishadi.

*Ikkinchi bosqich:* Undagi soʻzlarni aniqlaydi (uchta soʻz borligi aniqlanadi).

*Uchinchi bosqich:* Har bir soʻzni boʻgʻinlarga ajaratadi (har bir soʻzdagi boʻgʻinlar sonini aniqlaydi: **da-la-lar-da** 4ta boʻgʻin; **bosh-la-na-di** 4ta boʻgʻin, ish soʻzi faqat 1ta boʻgʻindan iborat ekanligini aytadilar).

*Toʻrtinchi bosqich:* Bunda soʻzlarni tovushlarga ajaratadilar (d-a-l-a-l-a-r-d-a; b-o-sh-l-a-n-a-d-I; i-sh kabi).

Oxirgi bajarilgan ish yangi mavzuni oʻtishga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Oʻuvchilardagi oldindan egallangan bilim va koʻnikmalar asosida oʻqituvchi yangi mavzuni tushuntirish ishini tashkil qiladi, chunki, biz bilamizki, oʻquv dasturida koʻrsatilganidek, taʼlim usuli induktiv taʼlim usulidir.

Yoʻnaltiruvchi oʻquv topshiriqlari yuzasidan tahlilimizni akademik litseylarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligi misolida koʻrib chiqaylik. Ularni ham mazmuniga qarab umumtaʼlim maktablari “Ona tili” darsligidagi topshiriqlar singari **qayta xotirlashga va izlanishga qaratilgan topshiriqlar** sifatida tasniflash mumkin. Masalan, akademik litseylarining 2-bosqich “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligining (4-dars. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Koʻchma maʼnolar va ularning turlari) 188-betida berilgan topshiriqlarni olaylik.

**1-topshiriq.** “Navoiy” dramasiidagi Mansur Navoiyga: “*Pirim, kechiring, itlik qildim*” deb yolvoradi. Shu iboraning maʼnosini tushuntiring. **It** soʻzining toʻgʻri va koʻchma maʼnolarini ayting. Bu topshiriqni bajarish uchun oʻquvchilar maktabning 5-sinfida oʻrgangan soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolariga doir bilimlarni qayta xotirlaydilar. Baʼzida kontekstda soʻzlar oʻz maʼnosidan tashqari

ko'chma ma'noda ham kelishini aytadilar va yuqoridagi iborada it so'zi o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llanganligini ta'kidlaydilar.

Shu sahifada berilgan 2-topshiriq birinchisidan farqli o'laroq, o'quvchini qisman bo'lsa-da izlanishga undaydi.

**2-topshiriq.** *Bulbul* so'zining to'g'ri va ko'chma ma'nolarini ayting. Ko'chma ma'nosi asosida gap tuzing.

Ushbu mashqni esa izlanuvchanlikka qaratilgan mashqlar sirasiga kiritish mumkin. Chunki o'quvchilar *bulbul* so'zining ko'chma ma'nosiga o'zlari mustaqil gap tuzadilar va undagi *bulbul* so'zining ma'nosini tushuntirishga va izohlashga harakat qilishadi.

Tahlilimizni ushbu darsliklardan o'rin olgan mashqlar (mustahkamlovchi o'quv mashqlari) bilan davom ettiraylik. Yangi mavzu o'tib bo'lingandan keyin o'tilganlarni mustahkamlash uchun bir qator mashqlar beriladi. Unday mashqlarni xarakteriga ko'ra biz ikkiga ajratdik:

**a) qisman mustaqil izlanishga asoslangan o'quv mashqlari;**

**b) ijodiylikka undaydigan o'quv mashqlari.**

Yangi mavzu o'tib bo'linganidan so'ng albatta uni mustahkamlash zarurati bor. Buni amalga oshirish o'ta muhim masala. Amalga oshirishda darsliklardan mustahkam o'rin olgan mustahkamlovchi mashqlarning roli va mazmuniga bog'liq. Mashqlarni bunday tasniflab o'rganishda past o'zlashtiruvchi hamda iqtidorli o'quvchilar uchun tatbiq etilganligini e'tiborga oldik.

Qisman mustaqil izlanishga asoslangan o'quv mashqlari asosan barcha o'quvchilarga nisbatan tatbiq etilgan, ammo past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yo'l-yo'riqlar berib ular bilan yo'naltirish ishi olib borilsa, albatta bu mashqlar asosida o'tilgan yangi mavzuni mustahkamlash mumkin.

Shu holatni ko'zda tutgan mustahkamlovchi mashqlarni o'rganaylik va tahlil qilaylik. Dastavval, umumta'lim maktablarining "Ona tili" darsliklaridan birida berilgan mashqlarni ko'rib chiqaylik. Masalan, umumta'lim maktablari 5-sinf "Ona tili" darsligining (62-dars. Ravish holi va daraja-miqdor holi) 83-sahifasida berilgan 176-mashqni tahlil qilib ko'raylik:



**176-mashq.** Oqing, nuqtalar o‘rniga ravish holini qo‘yib ko‘chiring.

Ota ularning istiqboliga ... chiqdi. Kelganlar orasida endigina frontdan qaytgan Boboqul aka ham bor. U hassa tayanib, ... kirib keldi. Nurxonbobo ko‘rpacha yozib, ularni ayvonga taklif etdi. Mehmonlar ... ko‘rinardi. Ularning yuzlarida odatdagi tabassumdan asar ham qolmagan. Hammasining ko‘ngli ... ko‘rinardi. Ular ... o‘tirib, tevarak-atrofga ... qarab qo‘yardilar.

(Yo.Sh.)

Bu mashqni bajarishda o‘quvchilar qisman izlanadilar. Ular nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos keladigan va ravish holi vazifasida kela oladigan so‘zni topishlari va o‘rniga qo‘yib ko‘chirishlari kerak, xolos.

Qisman mustaqil izlanishga asoslangan o‘quv mashqlari tahlilini akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklari misolida ham o‘rganaylik. Masalan, darslikning 191-sahifasida berilgan 56-mashqni olib ko‘raylik. Unda o‘quvchi namuna asosida ish ko‘radi.

**56-mashq.** Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Omonim yoki polisemantik so‘z ekanligini aniqlang.

Do‘st, yosh, yuz, nafis, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o‘ch, quloq.

N a m u n a:

1. Olti narsa rohatda yashashga yordam beradi, shulardan biri haqiqiy do‘sting bo‘lmoqligidir. 2. Bugungi kechamizga shoir Do‘st Hamdam ham tashrif buyurgan. 3. Do‘st!!! Yana bir juft qo‘shiq bo‘lsin!

Matndagi qolgan so‘zlar ishtirokida o‘quvchilar mustaqil ravishda gap tuzadilar, so‘ngra tuzgan gaplaridagi so‘zlarning omonim yoki polesemantik so‘z ekanliklarini izohlaydilar.

Ijodiy izlanishga undaydigan o‘quv mashqlari nisbatan iqtidorli o‘quvchilar uchun mo‘ljallanadi, ba’zida barcha o‘quvchilar uchun birday taqdim etiladigan mashqlar ichida ham shundaylari uchraydi. Shu holatni ko‘zda tutgan mustahkamlovchi mashqlarni o‘rganaylik va tahlil qilaylik. Dastavval, umumta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklaridan birida berilgan mashqlarni ko‘rib

chiqaylik. Masalan, umumta'lim maktablari 8-sinf "Ona tili" darsligining (59-dars. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar) 77-sahifasida berilgan 164-mashqni tahlil qilib ko'raylik:

**164-mashq.** Berilgan uch topshiriqli namunani diqqat bilan o'rganing. So'ngra topshiriqlarni o'z misollaringiz asosida bajaring.

*1-topshiriq.* Yoyiq gap tuzing.

N a m u n a: *O'zbekistonda 21-martda Navro'z bayrami shod-xurramlik bilan nishonlanadi.*

*2-topshiriq.* Gapni aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli so'z birikmalariga ajrating.

N a m u n a: 1) *O'zbekistonda nishonlanadi.* (holli birikma); 2) *21-martda.* (aniqlovchili birikma); 3) *Navro'z bayrami.* (aniqlovchili birikma); 4) *Bayrami nishonlanadi.* (ega-kesim); 5) *shod-xurramlik bilan nishonlanadi.* (holli birikma).

*3-topshiriq.* Gap bo'laklarining bir-biriga tobelanishini shartli belgilar bilan chizmada ko'rsating.

N a m u n a: O'zbekistonda (qayerda?) nishonlanadi.

21-(nechanchi?) martda.

Bayrami (nima?) nishonlanadi.

Shod-xurramlik bilan (qay tarzda?) nishonlanadi.

Bir necha topshiriqning barchasini bir vaqtning o'zida ketma-ketlikda bajarishning o'zi ham o'quvchidan ham mustaqillikni, ham faollikni, ham ijodkorlikni talab qiladi. Aynan topshiriqlarning xilma-xilligi o'quvchida qiziqish va faollikni yuzaga keltirsa, o'qituvchida uni bajartirish jarayoni uchun turli innovatsin texnologiyalarni qo'llash imkoni paydo bo'ladi.

Ayni shu holatni akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi misolida ham ko'rib chiqaylik. Darslikning

Xulosa shuki, topshiriqni bajartirishga innovatsion yondashuv ham bugungi ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan hisoblanmish "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan kadrlarni tarbiyalash"<sup>59</sup> talablariga ham to'la javob beradi.

Demak, umumta'lim maktablarining "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida berilgan barcha mashqlarni: yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlari yoki mustahkamlovchi o'quv mashqlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish mumkin. Faqat bu o'qituvchidan yuksak mahorat, faol boshqaruvchilik qobiliyati, vaqtdan unumli foydalana olishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda bu mashqlarning mazmuni va qay tarzda bajatirish imkoniyatidan kelib chiqib, ularni *ta'limiy o'yinlar, musobaqa mashqlari, ijodiy ishlar, talaffuz mashqlari, imlo mashqlari* kabi turlarga ajratish maqsadga muvofiq. Mustahkamlovchi mashqlarni bunday tasniflash asosan uning qaysi til bo'limiga mansubligi, mashq shartiga qo'yilgan talab, tanlangan innovatsion texnologiya va uning ishlash mexanizmig bog'liq. 2.1 bo'limda sanab o'tilgan barcha ish usullarini mustahkamlovchi mashqlarni bajartirish jarayoniga tatbiq etgan holda yuqori natijalarga erishish mumkin.

### **Bob yuzasidan xulosalar**

Umumta'lim maktablari "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida berilgan topshiriq va mashqlarning mazmuni, bajarilish talablari, qay maqsadga yo'naltirilganligi, unda o'qituvchi va o'quvchi o'rni hamda o'zaro munosabati qay darajada e'tiborga olinganligi haqida fikr yuritildi va quyidagicha tasniflandi:

Darsliklardagi barcha o'quvchilarga taqdim etilgan ish turlari ikki xil nom bilan yuritiladi: a) topshiriqlar; b) mashqlar.

Mashqlar tahlili natijalari ularni a) mazmuniga ko'ra; b) bajarilish talabiga ko'ra; d) qay maqsadga yo'naltirilganligiga ko'ra; e) o'quvchi va o'qituvchi o'rni

---

<sup>59</sup> Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент. 1996, 23-бет.

va o‘zaro munosabatiga ko‘ra kabi tasniflash imkonini berdi. O‘quvchi yoshi, fiziologiyasi, aqliy faoliyati, ta’limning qaysi bosqichida ekanligiga qarab biz innovatsion texnologiyalarni umumta’lim maktablari uchun alohida, akademik litseylar uchun alohida ro‘yxat qilib berdik va ularning tatbiqini darslikdagi mashqlar asosida sharhladik<sup>60</sup>.

Ishning 2-bobida o‘rganilganlardan va tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablari uchun “Klaster”, “..... ortiqcha”, “Bingo”, “T – sxemasi”, “Bu bizniki”, “Zanjir”, mashqlar bilan ishlash pragmatikasi kabi texnologiyalari, “Kichik guruhlarda ishlash”, integratsiyalashgan ta’lim, illyustrativ ta’lim metodlari, “Izohli lug‘at” bilan ishlash, “Imlo lug‘ati ustida ishlash”, “Sharhlash”, qiyoslash kabi usullar, talaffuz va imlo mashqlari va esse ijodiy ish turlari tavsiya qilindi.

Akademik litseylar uchun esa “Klaster”, “..... ortiqcha”, “Bingo”, “Bu bizniki”, mashqlar bilan ishlash pragmatikasi texnologiyalari, “Kichik guruhlarda ishlash” va integratsiyalashgan ta’lim metodlari, “Sharhlash” va “Izohli lug‘at” bilan ishlash usullari hamda esse ijodiy ish turi tavsiya qilindi.

Darsliklar tahlili natijalariga tayangan holda darsliklardagi berilgan amaliy o‘quv materiallarini, dastavval, ikki guruhga ajratildi: **1) topshiriqlar; 2) mashqlar.**

Topshiriqlar mazmuni maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagicha nomlandi: **1) yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlari; 2) mustahkamlovchi o‘quv mashqlari.**

Yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlarini o‘rganib chiqib, amaliy xarakteriga ko‘ra quyidagi ichki turlarga ajratish ma’qul topildi: **1) qayta xotirlashga qaratilgan o‘quv topshiriqlari; 2) izlanuvchanlikka qaratilgan o‘quv topshiriqlari.**

Tahlilni ushbu darsliklardan o‘rin olgan mashqlar (mustahkamlovchi o‘quv mashqlari) bilan davom ettirgan holda yangi mavzu o‘tib bo‘lingandan keyin

---

<sup>60</sup> Bunda bitiruv malakaviy ishimizning 1.3 bo‘limida o‘quvchilar va o‘qituvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar asos bo‘la oladi.

o‘tilganlarni mustahkamlash uchun berilgan mashqlar xarakteriga ko‘ra 2ga ajratildi: *a) qisman mustaqil izlanishga asoslangan o‘quv mashqlari; b) ijodiylikka undaydigan o‘quv mashqlari.*

Umumta’lim maktablarining “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarida berilgan yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlari va mustahkamlovchi o‘quv mashqlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish mumkin degan xulosaga kelindi. Buning uchun o‘qituvchidan yuksak mahorat, faol boshqaruvchilik qobiliyati, vaqtdan unumli foydalana olish imkoni talab qilinadi. Mashqlarning mazmuni va qay tarzda bajatirish imkoniyatidan kelib chiqib, ularni *ta’limiy o‘yinlar, musobaqa mashqlari, ijodiy ishlar, talaffuz mashqlari, imlo mashqlari* kabi turlarga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Mustahkamlovchi mashqlarni bunday tasniflash asosan uning qaysi til bo‘limiga mansubligi, mashq shartiga qo‘yilgan talab, tanlangan innovatsion texnologiya va uning ishlash mexanizmiga bog‘liq.

### III BOB

#### Tadqiqotning amaliyotga tatbiqi

##### 3.1. Mashqlarni bajarishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maktab “Ona tili” va akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklaridagi mashqlarni o‘quvchilarga qanday bajartirish yuzasidan mashqlar va ularga mos innovatsion texnologiyalar ishlab chiqildi, ya’ni tavsiyalar tayyorlandi.

Nazorat sinflarida mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayoni o‘qituvchisining ijodiy yondashuvlari asosida tashkil etildi. Tajriba sinflarida esa tavsiyalarimiz asosida ish olib borildi.

Dastavval, umumta’lim maktablarida tashkil etilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashga qaratilgan tavsiyalarimizni bayon etamiz:

***1-tavsiya:*** 7-sinf “Ona tili” darsligida berilgan 119-mashq “Kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik” texnologiyasi asosida bajartirildi. Sinf o‘quvchilari beshta kichik guruhga ajratiladi va ularga mashqda berilgan so‘zlar yozilgan mayda o‘ramlardan tanlab olish imkoniyati beriladi. Har bir guruh sardori chiqib bittadan o‘ramlardan birini tanlab olishadi. Har bir guruhda 5 yoki 6 o‘quvchi bo‘ladi. Ularga bir varaq oq qog‘oz beriladi. Qog‘ozning chap tomon burchagida guruh sardori va a’zolari ro‘yxati yozilishi uchun joy ajratiladi. o‘ng tomon pastiga o‘qituvchi baholashga xizmat qiluvchi fikr va mulohazalarini yozish uchun joy qoldiriladi. Qog‘ozning o‘rta qismida esa o‘quvchilar vazifani bajarishi va yozishi uchun katta qismi qoldiriladi.

**119-mashq.** *Kitob, dars, uy, harakat qilish, orzu* so‘zlarini turlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bunda guruh a’zolaridan uch bosqichli ishni 5 daqiqa ichida bajarishi talab qilinadi.

***Birinchi bosqich:*** Ular so‘zni o‘qib chiqishadi va uni kelishik qo‘shimchalari bilan turlashadi.

***Ikkinchi bosqich:*** Mazmuniy ketma-ketlikni saqlagan holda turlangan soʻzlar asosida gap tuzishadi.

***Uchunchi bosqich:*** Bu bosqichda matnda ishtirok etgan soʻzlar va matn mazmunidan kelib chiqib maqol va hikmatli soʻzlardan namunalar yozish talab qilinadi. Bu esa oʻquvchilardan tezkorlikni va kreativlikni talab qiladi.

***2-tavsiya:*** 8-sinf “Ona tili” darsligida berilgan 88-darsning 245-mashq “Bingo” texnologiyasi yordamida bajartiriladi. Unda 2ta topshiriq berilgan. Ulardan birinchisini bajarish jarayonida ayni shu texnologiyani tatbiq etish mumkin. Chunki ***“Oʻquvchilar kecha maktab bogʻida pishib yetilgan oʻriklarni terishdi”*** oʻqib chiqib, uni 1) faqat uyushiq egali; 2) faqat uyushiq payt holli; 3) faqat uyushiq qaratqich aniqlovchili; 4) faqat uyushiq sifatlovchili aniqlovchili; 5) faqat uyushiq vositasiz toʻldiruvchili gaplar hosil qilishi kerak. Buning uchun quyidagicha bingo-jadval tuziladi va oʻquvchilarga yetarli tarzda koʻpaytiriladi:

	<b>B</b>	<b>I</b>	<b>N</b>	<b>G</b>	<b>O</b>
	Faqat uyushiq egali gaplar	Faqat uyushiq payt holli gaplar	Faqat uyushiq qaratqich aniqlovchili gaplar	Faqat uyushiq sifatlovchi aniqlovchili gaplar	Faqat uyushiq vositasiz toʻldiruvchili gaplar
1					
2					
3					
4					
5					

***3-tavsiya:*** Umumtaʼlim maktablari 5-sinf “Ona tili” darsligining “Fonetika. Grafika” boʻlimida berilgan berilgan 378-mashq ustida ishlash jarayonida “Talaffuz va imlo mashqlari” usulidan foydalaniladi. Biz bunda mashqni bajartirishda quyidagi bosqichli jarayonni tavsiya qilishni maʼqul deb topdik:

Dastavval, chizmaga binoan, mashq sharti oʻqiladi. Fonetika boʻyicha qilinadigan ishlar tushuntiriladi, unga koʻra oʻquvchilar aytilishi va yozilishi farq qilayotgan soʻzlarni oʻqib chiqadilar va ulardagi farqni bilishga va izohlashga harakat qiladilar. Endi ularga xato talaffuz qilingan variant diktovka asosida oʻqib eshittiriladi, ular egallagan bilimlari asosida ularning toʻgʻri variantini eslab yozishlari kerakligi talab qilinadi. Oʻquvchilar talab qilinayotgan vazifa bilan bir qatorda qoʻshimcha vazifa – chiroyli va tushunarli qilib ham yozishni uddalashlari

kerak. Bunda ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida bir necha jarayon ustida ishlaydilar.

**4-tavsiya:** Umumta’lim maktablari 5-sinf “Ona tili” darsligining “Leksikologiya” bo‘limiga oid 179-sahifasida berilgan 511-mashqni bajartirishda “Zanjir” texnologiyasi yaxshi samara beradi.

**511-mashq.** Ma’nodosh so‘zlar qatorini aniqlang.

Issiq, yurt, zamon, yugurmoq, sezgir, Vatan, iliq, ziyrak, vaqt, chopmoq, jazirama, diyor, hushyor, payt.

Shu so‘zlardan zanjir hosil qilishi lozimligi uqtiriladi. Ular o‘zlari bilgan bilimlari asosida zanjir hosil qilishadi. Biroq oldindan ularga zanjirlar soni aytilmaydi. Ular hosil qilgan zanjirlar o‘quvchilarning o‘zlaridagi leksik zapaslari va mashq matnida berilgan so‘zlar hisobidan hosil qilinishi kerak. Biroq oldindan ularga zanjirlar soni aytilmaydi. Natija qancha zanjir hosil qilinganligi, har bir zanjirdagi so‘zlarning miqdori, o‘quvchilarning ularni hosil qilishdagi mahorati va so‘z boyligi bilan belgilanadi.

Endi akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida tashkil etilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashga qaratilgan tavsiyalarimizni bayon etamiz:

**1-tavsiya: 48-mashq.** *O‘qing. Alisher Navoiy gulni qanday ifodalaganiga e’tibor bering. Gul va giyohlarning leksik ma’nosini izohlang.*

Alisher Navoiy o‘z asarlarida gil, uning vazifasini o‘taydigan giyoh va o‘simliklar, gulga aloqador ashyolar, shuningdek, mavjudotlarning juda ko‘pidan va xilma-xillaridan keng foydalanadi. Shu bilan bir vaqtda ulug‘ shoir o‘z maqsadlarini ifodalashda gul va gulistonlardan ayrim g‘azallarining ba’zi baytlaridagina foydalanib qo‘ya qolmay, balki o‘nlab g‘azallarini butun-butunligicha ana shunday ifodalashga bag‘ishlaydi. Ularda o‘nlab xildagigullar: nasrin, nastarin, nargis, nilufar, savsan, rayhon, xino, zanboq guli, lola, sadbarg, ra’no, hazorg‘uncha, zag‘far, sumanpar; yoqimli hidi va go‘zal ko‘rinishi bilan gulni eslatuvchi giyohlar: sunbul, ishq pechan; manzarali daraxtlar: sarv, ar-ar, arg‘uvon, shamshod kabilar haqida ma’lumot beradi. Ya’ni: guloroy – gul bilan bezangan, gulrez – gul to‘kuvchi, gulposh – gul yopingan, qip-qizil gulday



kiyingan, gulbang – yoqumli ovoz, bulbul ovozi, guldastaband – majozan quyosh nurlari kabi iboralar Navoiy asarlarining mazmunini ochib berishda mislsiz zo‘z xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqorida aytib o‘tilgan iboralarning aksariyatini ulug‘ Navoiy sinonimiya vositasida turli variantlarda ishlatgan: gul, chechak, vard, shugufa kabi. Shu bilan birga, gulga oid ko‘pchilik iboralardan omonimiya yordamida turli ma‘nolar hosil qilgan: gul (chechak), gul (bezak), gul (yashnamoq), gul (mahbuba), gul (go‘dak), gul (umuman inson), gul (qizamiq) singari.

Buyuk shoirning asarlarida gul tushunchasidan foydalanish ko‘lami keng va katta.

(O.Valixonov)

Mana shu mashqni bajartirishda “Klaster”dan foydalanish mumkin. Unga quyidagicha topshiriq qo‘yiladi: *Mashqda berilgan matnni o‘qib, undan A.Navoiy o‘z asarlarida foydalangan gullar, giyohlar va boshqa mavjudotlarning nomlari asosida klaster yarating.*

Mashqning bajarilib bo‘lingandan keyingi eng to‘g‘ri bajarilgan varianti quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.



**2-tavsiya:** Akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilgan 56-mashqni bajarish jarayonida “Bu bizniki” texnologiyasidan foydalaniladi. Guruh o‘quvchilari 5 ta kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruh gap bo‘laklari nomlari bilan nomlanadi: “Ega”, “Kesim”, “Hol”, “Aniqlovchi”, “To‘ldiruvchi”. Har bir guruh o‘zi nomlangan guruh nomi bilan bog‘liq gap bo‘laklarini topib qayd qilib borishlari lozim. Har bir guruh o‘zinikini topib ularning qaysi so‘z bilan bog‘langanligini izohlaydilar.

**56-mashq.** *O‘qing. Gapni bo‘laklarga ajrating.*

### O‘TOV

Turkiy xalqlarning dastlabki xo‘jalik turlaridan biri bo‘lgan chorvachilik turli sabablarga ko‘ra makon o‘zgartirish hamda urushlar tarixi bilan bevosita aloqador. Ana shunday tarixiy vaziyatlarda mazkur xalqlar xohlagan vaqtda tikib yashab, xohlagan paytda yig‘ib, ko‘chiga ortib ketishiga qulay bo‘lgan ko‘chma uylardan (o‘tovlardan) foydalanganlar.

“O‘tov” so‘zi o‘zbek tilida “kigiz uy” ma’nosini bildirsa, qirg‘iz, qozoq, turkman tillarida katta uyga nisbatan kichik uyni ifodalaydi. O‘tovlar yengil, tabiiy materiallardan quriladi. O‘tovlarning yog‘och qismi erkak ustalar tomonidan, kigiz qismi esa ayollarning qo‘l mehnati natijasida amaliy san’at asari darajasiga ko‘tarilgan.

Ushbu matndagi gaplardan o‘zlariga tegishli bo‘lgan gap bo‘laklarini aniqlab, ularning nima uchun o‘zlariga tegishli ekanligini va ularni o‘zi bog‘langn so‘z bilan birgalikda tushuntirib beradilar.

**3-tavsiya:** Akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilgan “Leksikologiya” va “Uslubiyat” bolimlariga tegishli mustahkamlovchi mashqlarni bajartirishda, masalan, “Leksikologiya” bolimidagi ma’nodosh so‘zlarga oid berilgan mashqlarni yoki “Uslubiyat” bo‘limidagi nutq uslublari turlariga oid mashqlarni bajartirishda “Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi” texnologiyasidan foydalanish mumkin.

Uslubiyat mavzusi mashqlariga tatbiq etish misolida ko‘rib chiqamiz. Uning texnologiyasini, ya’ni ishlash mexanizmini quyidagi jadvalda aniq ko‘rsatib berish mumkin.

<b><i>Bosqichlar</i></b>	<b><i>Amaliy ishlarni bajarish mazmuni</i></b>	<b><i>Nazariy xulosalar chiqarish</i></b>
<b><i>1-bosqich:</i></b>	Bu bosqichda o‘quvchilarga matn yaratish vazifasi beriladi. Uni yaratish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo‘ladi. Matn uchun mavzu tanlanadi.	
<b><i>1A-bosqichi</i></b>	Oddiy so‘zlashuv uslubiga oid matn yaratilish vazifa qilib beriladi. Unda o‘quvchiga hech qanday cheklov qo‘yilmaydi.	O‘zlari yaratgan matn asosida undagi shevaga xos so‘zlar va talaffuzdagi hamda imlogi adabiy tilga yot bo‘lgan o‘rinlar aniqlanadi.
<b><i>1B-bosqichi</i></b>	Bu bosqichda o‘quvchiga ayni shu matnni adabiy so‘zlashuv uslubi qoidalari asosida ishlab chiqish vazifa qilib yuklanadi.	Adabiy tilga xos bo‘lgan jihatlari tahlil qilinadi. Shevaga xos so‘zlar, varvarizmlar, talaffuz va imlo qoidalari buzilmaganligi, adabiy til me’yorlariga amal qilinganligi haqida fikrlashadilar.
<b><i>2-bosqich</i></b>	Yuqorida yaratilayotgan matn asosida rasmiy uslubdagi hujjatlardan birini yaratish vazifasi topshiriladi. Masalan, “E’lon yaratish” vazifa qilib berilishi mumkin.	Rasmiy uslub janrlarini sanab beradilar, rasmiy uslubdagi har qanday matn o‘zining qat’iy qolipiga ega bo‘lishini ta’kidlaydilar, undagi leksik va grammatik belgilarni aniqlaydilar.
<b><i>3-bosqich</i></b>	Yuqoridagi adabiy so‘zlashuv va rasmiy uslubdagi mazmun saqlangan holda uni publisistik matnga aylantirish vazifa qilib beriladi.	Bu uslubning eng yorqin belgilaridan biri – bu uning targ‘ibot-tashviqotga yonalganligi aytishadi, uning asosiy belgilaridan biri – bu ijtimoiy-siyosiy leksemalardan iborat ekanligi qayd qilinadi. Bu uslubda qisman bo‘lsa-da badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi ham yodga olinadi.

Ko‘rinib turibdiki, darsliklarda berilgan mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonini turli innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ya’ni

mashqlarni bajartirish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini ta’minlaydi, o‘quvchida faollikni oshiradi, mas’uliyatni his qilishni tarbiyalaydi, fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

### **3.2. Mashqlarni innovatsion texnologiyalar yordamida bajarilishi yuzasidan olib borilgan ishlarning natijalari**

Darslik asosida an’anaviy tarzda bajartirilgan mashqlar ustida ishlash yuzasidan tashkil qilingan ishlar bilan bitiruv malakaviy ishda keltirilgan turli innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilingan noan’anaviy mashqlar ustida ishlash jarayoni orasidagi farq hamda nisbatan samarali dars ekanligiga to‘la ishonch hosil qilish maqsadida o‘quvchilarning mashqlari tekshirildi.

1. Dastlab, umumta’lim maktablaridagi nazorat va tajriba sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirishlarini aniqlash maqsadida ularning vazifalari tekshirildi.

<i>1-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>		<i>2-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>		<i>3-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>		<i>4-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>	
<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>	<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>	<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>	<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>
36 tadan 18 ta	34 tadan 27 ta	36 tadan 16 ta	34 tadan 29 ta	36 tadan 17 ta	34 tadan 23 ta	36 tadan 18 ta	34 tadan 28 ta

2. Dastlab, akademik litseyidagi nazorat va tajriba sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirishlarini aniqlash maqsadida ularning vazifalari tekshirildi.

<i>1-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>		<i>2-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>		<i>3-tavsiya bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi</i>	
<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>	<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>	<i>n.s.</i>	<i>t.s.</i>
30 tadan 18 ta	34 tadan 27 ta	30 tadan 16 ta	34 tadan 29 ta	30 tadan 17 ta	34 tadan 23 ta

Keltirilgan jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, darsliklarda o‘rin olgan barcha mustahkamlovchi mashqlarning mazmuniga, talabiga, o‘quvchi hamda o‘qituvchi munosabatiga va ta’lim usuliga ko‘ra ularga mos keladigan innovatsion texnologiyalarni va samarador usullarni tatbiq etish natijasi tajriba sinfi o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

## UMUMIY XULOSALAR

Ta'lim bosqichlarida leksikolgiya bo'limini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining, shuningdek, fan dasturi va darsliklarining tahlili natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. O'quv topshirig'i va mashq tushunchalariga aniqlik kiritildi. O'zbek tilining izohli lug'atida **“mashq”** atamasiga keltirilgan ta'rif berilib, undan ona tili darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan variant saralab olindi. Ayni shunday ta'rif **“topshiriq”** atamasi doirasida ko'rib chiqildi. Uning ham barcha variantlari o'rganilib, ularda aynan ona tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan ta'rifi to'lig'icha izohlandi. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar ham o'rganilib chiqildi va tahlilga tortildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishda topshiriq va mashqlar tizimini ishlab shiqish va undan samarali foydalanish muammolari bir qator metodist olimlar T.G'aniyev, M.Mahmudov, E.M.Sorokina, A.G'ulomov, R.Safarova, G.Urumboyeva, M.Saidov, V.A.Saakyan, Sh.Yusupova, T.Ziyodova, M.Sobirova, N.Qosimova, T.A.Yusupova, M.Rixsiyeva, Bobomurodova va A.Ergashevalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zlarining ilmiy ishlarida rekonstruktiv, reproduktiv hamda ijodiy mashq turlari haqida batafsil ma'lumot berishgan, tasnif qilishgan.

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta'limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish masalasi, birinchi navbatda, o'quvchiga bajartiriladigan mashq va topshiriqlar mazmuni bilan belgilansa, ikkinchidan esa, shu jarayonni qanday tashkil qilish bilan ham bog'liq. Ta'lim samaradorligini oshirish, til sathlarini o'qitishda o'quvchilarning mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlash jarayonlarini innovatsion texnologiyalardan foydalanish holda tashkil etish masalalarini to'liq hal etishda mashq va

topshiriqlar tizimini ishlab chiqish yoki darsliklardagi mashqlar ustida ishlashni tashkil etishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish lozim deb o'ylaymiz.

Demak, mashqlar, o'quv topshiriqlari tushunchalari doimiy ravishda metodist-olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Chunki ona til darslarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Topshiriqlarni bajartirish va mashq qilish orqaligina o'quvchilarda ko'nikmalarni shakllantirish, va malakaga ega qilish mumkin. Busiz bironta til sathlariga oid nazariy bilimlar kundalik hayotda doimiy asqotadigan kompetensiyaga aylanmasligi mumkin. Bu esa kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili ta'limining maqsadini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. O'qituvchi umumta'lim maktablarining ona tili darslarida va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini rejalashtirish va tashkil etishda o'quv fanidan yaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, darslik, shu darslik asosida tayyorlangan "O'qituvchi kitobi" metodik ko'rsatmalariga tayanadi. Darslik standart va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqib tuziladi. "O'qituvchi kitobi" undan foydalanish yo'l-yo'riqlarini beradi. Shunday bo'lgach, biz dastavval umumta'lim maktablarining "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklari doirasida shu darsliklarning fanni o'qitishda undagi mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun beradigan imkoniyatlari haqida ham fikr yuritilgan.

3. Darsliklar tahlilini o'zaro bir-biriga daxldor bo'lgan umumta'lim maktab-larning "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida yangi mavzuni o'rganishga doir o'quv topshiriqlari va mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkonini beruvchi fonetik hodisalar, leksika, ibora, morfologik shakllar, sintaktik qurilmalar, sintaktik figuralarni mustahkamlashga oid mashqlar va ularning shartlarini o'rganish va tahlil qilish, "O'qituvchi kitobi"da mustahkamlovchi mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga doir tavsiyalarning mavjudligi masalalari o'rganildi. Jadvallarda umumta'lim maktablarining 5-sinf "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida berilgan mustahkamlovchi

mashqlar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi nazariy ma'lumotlar va amaliy mashqlar hamda topshiriqlarni ajratdik.

4. Umumta'lim maktablari "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklarida berilgan topshiriq va mashqlarning mazmuni, bajarilish talablari, qay maqsadga yo'naltirilganligi, unda o'qituvchi va o'quvchi o'rni hamda o'zaro munosabati qay darajada e'tiborga olinganligi haqida fikr yuritildi va quyidagicha tasniflandi. Ular quyidagilar: a) topshiriqlar; b) mashqlar (Darsliklardagi barcha o'quvchilarga taqdim etilgan ish turlari shu ikki xil nom bilan yuritiladi). Mashqlar tahlili natijalari ularni a) mazmuniga ko'ra; b) bajarilish talabiga ko'ra; d) qay maqsadga yo'naltirilganligiga ko'ra; e) o'quvchi va o'qituvchi o'rni va o'zaro munosabatiga ko'ra kabi tasniflash imkonini berdi. O'quvchi yoshi, fiziologiyasi, aqliy faoliyati, ta'limning qaysi bosqichida ekanligiga qarab biz innovatsion texnologiyalarni umumta'lim maktablari uchun alohida, akademik litseylar uchun alohida ro'yxat qilib berdik va ularning tatbiqini darslikdagi mashqlar asosida sharhladik.

5. Ishning 2-bobida o'rganilganlardan va tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda umumta'lim maktablari uchun "Klaster", "..... ortiqcha", "Bingo", "T – sxemasi", "Bu bizniki", "Zanjir", mashqlar bilan ishlash pragmatikasi kabi texnologiyalari, "Kichik guruhlarda ishlash", integratsiyalashgan ta'lim, illyustrativ ta'lim metodlari, "Izohli lug'at" bilan ishlash, "Imlo lug'ati ustida ishlash", "Sharhlash", qiyoslash kabi usullar, talaffuz va imlo mashqlari va esse ijodiy ish turlari tavsiya qilindi. Akademik litseylar uchun esa "Klaster", "..... ortiqcha", "Bingo", "Bu bizniki", mashqlar bilan ishlash pragmatikasi texnologiyalari, "Kichik guruhlarda ishlash" va integratsiyalashgan ta'lim metodlari, "Sharhlash" va "Izohli lug'at" bilan ishlash usullari hamda esse ijodiy ish turi tavsiya qilindi.

6. Darsliklar tahlili natijalariga tayangan holda darsliklardagi berilgan amaliy o'quv materiallarini, dastavval, ikki guruhga ajratildi: **1) topshiriqlar; 2) mashqlar.** Topshiriqlar mazmuni maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagicha nomlandi: **1) yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlari; 2) mustahkamlovchi o'quv**

*mashqlari*. Yoʻnaltiruvchi oʻquv topshiriqlarini oʻrganib chiqib, amaliy xarakteriga koʻra quyidagi ichki turlarga ajratish maʼqul topildi: **1) qayta xotirlashga qaratilgan oʻquv topshiriqlari; 2) izlanuvchanlikka qaratilgan oʻquv topshiriqlari**. Tahlilni ushbu darsliklardan oʻrin olgan mashqlar (mustahkamlovchi oʻquv mashqlari) bilan davom ettirgan holda yangi mavzu oʻtib boʻlingandan keyin oʻtilganlarni mustahkamlash uchun berilgan mashqlar xarakteriga koʻra 2ga ajratildi: **a) qisman mustaqil izlanishga asoslangan oʻquv mashqlari; b) ijodiylikka undaydigan oʻquv mashqlari**.

7. Umumtaʼlim maktablarining “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsliklarida berilgan yoʻnaltiruvchi oʻquv topshiriqlari va mustahkamlovchi oʻquv mashqlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish mumkin degan xulosaga kelindi. Buning uchun oʻqituvchidan yuksak mahorat, faol boshqaruvchilik qobiliyati, vaqtdan unumli foydalana olish imkoni talab qilinadi. Mashqlarning mazmuni va qay tarzda bajatirish imkoniyatidan kelib chiqib, ularni *taʼlimiy oʻyinlar, musobaqa mashqlari, ijodiy ishlar, talaffuz mashqlari, imlo mashqlari* kabi turlarga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Mustahkamlovchi mashqlarni bunday tasniflash asosan uning qaysi til boʻlimiga mansubligi, mashq shartiga qoʻyilgan talab, tanlangan innovatsion texnologiya va uning ishlash mexanizmi bogʻliq.

8. Darsliklarda oʻrin olgan barcha mustahkamlovchi mashqlarning mazmuniga, talabiga, oʻquvchi hamda oʻqituvchi munosabatiga va taʼlim usuliga koʻra ularga mos keladigan innovatsion texnologiyalarni va samarador usullarni tatbiq etish natijasi tajriba sinfi oʻquvchilarining oʻzlashtirish koʻrsatkichi nazorat sinfi oʻquvchilarining oʻzlashtirish koʻrsatkichidan yuqori ekanligi bilan izohlanadi.



## **Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha-inglizcha lugʻati**

Adabiy til – literary language  
Amaliy – practical, applied  
Amaliy ish – practical work  
Anʻanaviy – traditional  
Aqliy faoliyat – mental activities  
Asosiy – main, chief, principal, fundamental  
Axborot – report, information  
Dars – lesson, class, occupation  
Darslik – textbook, manual, primer  
Dastur – reversing rod  
Dolzarb – peak, culmination  
Erkin – free  
Eshituvchi – listener  
Izohli lugʻat – dictionary  
Faol – active  
Faollik – activity  
Fikr – idea, thought, opinion  
Foydalanish – use, using, useful  
Ijobiy – positive, favourable  
Ijodkorlik – creation  
Ilmiy – scientific  
Iqtidorli – powerful, mighty  
Izoh bermoq – explain  
Izchil – successive, consecutive  
Joriy etmoq – put into practice, introduce  
Kelajak avlod – future the next generation  
Kompyuter – computer  
Koʻrsatmali – graphic, obvious

Malakali – experienced, skilled  
Maqsadga muvofiq – expedient  
Mavzu – subject, theme  
Mashgʻulot – occupation, studies  
Metod – method, methodology  
Metodik – systematic, methodologic  
Metodika – method, methodology  
Mustaqil – self-dependent  
Ogʻzaki – oral, verbal  
Pedagogik – pedagogical, educational  
Psixologik – psychology  
Qiziqarli – interesting, interestingly  
Rivojlantirish – fostering, developing  
Samarali – fruitful, productive, effective  
Ilmiy tadqiqot – research  
Tahlil qilmoq – analyze  
Taqdim qilmoq – present smb. (with), offer  
Tarbiyalamoq – bring up, educate  
Tatbiq etmoq – apply, employ, use  
Taʼlim – education, teaching  
Texnologiya – technology  
Umumtaʼlim – public education  
Uzluksiz – uninterrupted, continuous  
Uzviy – organic  
Vosita – instrument, means, ways, methods  
Xulosa – conclusion, summary  
Xususiyat – peculiarity, uniqueness  
Zamonaviy – contemporary, modern, current  
Oʻrgatish – instructing, teaching  
Oʻyin – play, game

O‘zlashtirmoq – master, acquire, assimilate (a subject, profession)

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.: 176.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.: 20–29.
4. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.: 31-61.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. П. Э-М // Таҳрир ҳайъати: Мирзаев Т. (раҳбар) ва бошқалар. ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2006. – Б.: 672.
8. Акрамов Ш., Акрамова Л. Сатҳлараро боғланишли тест технологиясидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. – 2002, 1-сон. – Б. 7–9.
9. Аминова С. Она тили дарсларида ноанъанавий усуллар // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1995. – № 1. – Б. 17-18.
10. Бектошев Ш. Она тили дарсларида ўйин усулидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1993. – № 5-6. – Б. 15-16.
11. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.
12. Боқиева Ҳ. Ҳар дарсда ҳамкорлик // Бошланғич таълим. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 28-29.

13. Давлат таълим стандартига шарҳ: Она тили // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Таълим тараққиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 46-54.
14. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.
15. Зиёдова Т. Тилсим топишмоқлари – нутқий фаолиятни шакллантириш омили: Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: РТМ, 1999. – 73 б.
16. Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. – Тошкент, 2000. – 163 б.
17. Йўлдошева Н. Умумўрта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 23 б.
18. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf. / O'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 176 b.
19. Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5–7-синф она тили дарслари мисолида): Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.
20. Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулаҳатова Р., Иноғомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили дарслари (методик қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 262 б.
21. Омилхонова М., Абдуллаев Й. ва бошқалар. 7- ва 8- синфда она тили дарслари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 205 б.
22. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Muall. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 224 b
23. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun / N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshq. – Toshkent: «Tasvir» nashriyot uyi. 2005. – 176 b.

24. Ona till: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. –128 b.
25. Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
26. Ona tili fanidan umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quv dasturi: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 20-41
27. Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари ҳамда тил ва адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма – Toshkent: Ўқитувчи, 1976. – 123 б.
28. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. –Toshkent, 2000. –128 б.
29. 8-sinf uchun ona tili o'quv fanidan takomillashtirilgan dastur. Tuzuvchilar: H.Ne'matov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qodirov, M.Abduraimova // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2008. – №8-son. – B. 8-18.
30. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Toshkent: Фан, 1995. – 108 б.
31. Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари // Ўзбек тили доимий анжумани ўнинчи йиғини материаллари. – Toshkent: RTM, 2009. – 269 б.
32. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ...дисс. –Toshkent, 1998. – 26 б.
33. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Toshkent, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б.
34. Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – Toshkent, 1994. – № 1. – Б. 8-13.

35. Ўзбек мактабларида она тили ўқитиш концепцияси. – Тошкент: ЎзПФТИ, 1993. – 21 б.
36. Қурбонова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.
37. Фуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.
38. Г‘уломова Х. ва бoshq. 4-sinfda она тили darslari: (Uslubiy qo‘llanma). Muall. X.G‘uломova, Sh.Yo‘ldosheva, U.Shermatova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 160 b.
39. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. T.: Xalq merosi, 2013.
40. G‘ulomov A., Qodirov M. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Fan va texnologiyalar” 2012, 340 bet.

### **Elektron ta’lim resurslari**

Elektron saytlar ro‘yxati:

- <http://www.ZiyoNet.uz>;
- <http://www.ziyouz.uz>;
- <http://www.uzedu.uz>;
- <http://www.kitob.uz>;
- <http://www.fikr.uz>;
- <http://www.utube.uz>;
- <http://www.edunet.uz>;
- <http://www.edu.uz>;
- <http://rtm.uzedu.uz>;